

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
XIToySHUNOSLIK FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

XIToy SIYOSATIDA TAYVAN MASALASI

Bajardi: “Jahon siyosati” ta’lim yoʻnalishi bitiruvchi kurs
Talabasi Axmedov Fozilbek Ulugʻbek oʻgʻli

Ilmiy rahbar: siyos.f.n., dots. Umarov X.P. _____

Toshkent-2016

Bitiruv malakaviy ishi himoyasiga tavsiya etiladi

“Xitoyshunoslik” fakulteti dekani

f.f.n., dotsent Xashimova S.A.

“__” _____ 20__yil

“Xitoy siyosati, tarixi va XMdagi

o`rni” kafedrasi mudiri

t.f.d, prof. N.E.Karimova

“__” _____ 20__yil

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kelib ham xalqaro munosabatlarda yetakchi davlatlarning o'z ta'sir doiralarini kengaytirishga qaratilgan kurashi davom etmoqda. Bu esa boshqa davlatlarning suvereniteti, barqarorligi va hududiy yahlitligiga bevosita ta'sir o'tkazmoqda. Hozirgi rivojlangan bir davrda ham muammolar kamayishi o'rniga ko'payib yanada xavfli tus olib ularning hal etilishi yanada chigallashib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni holisona baholar ekanmiz, keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o'sib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning, radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi tahdidlarning kuchayib borayotgani barchamizni tashvishga va xavotirga solmasdan qo'ymaydi, albatta"¹.

Xalqaro munosabatlarda mustaqil davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan tashqi siyosatning qay darajada tog'ri tanlanishi va iqtisodiy yuksalishi ularning jahon siyosatidagi o'rnini belgilab bermoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, XXI asrga kelib Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) o'zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudrati bilan jahon iqtisodiy va siyosiy jarayonlariga sezilarli darajada ta'sir eta oladigan qudratli davlatlardan biri sifatida namoyon bo'la boshladi. Bugungi Xitoyning xalqaro munosabatlardagi o'rnining qay darajada ekanligini bevosita uning BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zosi ekanligi, ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish jihatdan ustunligi, yadro quroliga ega davlatlardan biri sifatida tan olinganligi kabi omillar belgilab beradi. XXRning barcha mintaqalarda xususan, Markaziy Osiyoga bo'lgan ta'siri ham oshib bormoqda. Uning barcha Markaziy Osiyo davlatlari bilan xususan, O'zbekiston bilan ham hamkorligi yildan-yilga rivojlanib bormoqda. O'zbekiston XXR bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda doimiy hamkorlik qilib kelmoqda. Umuman olganda XXR va O'zbekiston

¹ Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т.:Ўзбекистон, 2015. – Б. 273.

o'rtasida aloqalar dinamikasining yuqoriligini va uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan hamkorlik ekanligini yaxshi tasavvur qilish uchun 1994 yilning 24 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy prinsiplari, o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risida bayonnoma"ni tilga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unda o'zaro tenglik va do'stlik tamoyillariga asoslangan hamkorlikni yanada rivojlantirishdan har ikki mamlakat ham birdek manfaatdor ekani alohida ta'kidlangan. Shuningdek ikki davlat xalqlari o'rtasidagi aloqalar, munosabatlar va o'zaro hurmat an'analari shakllangani ham ko'rsatib o'tilgan¹.

O'zbekiston XXR bilan har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yar ekan, uning mintaqadagi holatini va uning nafaqat mamlakatimiz bilan balki mintaqadagi boshqa davlatlar bilan munosabatlarini o'rganilishi dolzarb masalalardan biri sifatida belgilanadi. XXRning boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlariga uning ichki va tashqi muammolari bevosita ta'sir o'tkazadi. Ichki siyosatida eng og'riqli muammolaridan biri Tayvan muammosi bo'lib qolmoqda. Davlatlarning Tayvan muammosiga bo'lgan yondashuvi XXRning ular bilan munosabat o'rnatishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston tashqi siyosiy prinsiplariga ko'ra davlatlarning hududiy yahlitligini hurmat qiladi va xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilinishini qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "Biz mamlakatlarning hududiy yahlitligi va suverenligini hurmat qilamiz. Biz barcha mojarolarni, muzokaralar, siyosiy yo'l bilan hal etish tarafdorimiz"². Ayni paytda, O'zbekiston XXRning "yagona Xitoy" va Tayvan uning bir qismi ekanligini e'tirof etadi. Chunki XXR faqat "yagona Xitoy" va Tayvan uning bir qismi ekanligi tan oluvchi davlatlar bilan rasman diplomatik aloqalar o'rnatadi. O'zbekistonning olib borayotgan bu siyosati XXR bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Bitiruv malakaviy ishi hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri

¹Ўзбекистон Республикаси билан Хитой Халқ Республикаси ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг асосий принциплари, ўзаро манфаатли ҳамкорликни янада ривожлантириш ва чуқурлаштириш тўғрисида баённома. // Халқ сўзи. 1994 йил 28 октябрь.

² Каримов И.А. Биздан Озод ва Обод Ватан қолсин. – Т.2. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.93.

bo'lgan Tayvan muammosining kelib chiqish sababi, uning XXR ichki va tashqi siyosatiga bo'lgan ta'sirini tahlil qilishni taqozo qiladi.

Tayvan Sharqiy Osiyoning eng muhim geosiyosiy va strategik muhim hududlardan biri hisoblanadi. XXRning Osiyo-Tinch okeani hududida integratsion jarayonlarda ishtirok etishi hozirgi kunda muhim tashqi siyosat yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu hududda yagona iqtisodiy makonning yaratilishida XXR yetakchi davlat bo'lishga intilmoqda. Bunga esa birinchi navbatda uning hal qilinmagan ichki muammolari jumladan Tayvan muammosi ham halal bermoqda. Albatta bu muammo hozirgi globallashuv davrida boshqa davlatlarga ham ta'sirini o'tkazishi tabiiy. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "Har qanday mintaqaning hal qilinmagan va gazak otib ketgan muammolari butun dunyoda zanjir reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Vaziyatning beqarorlashuvi esa kundan – kunga aniq – ravshan bo'lib borayotgani yangi jug'rofiy – siyosiy muvozanatni buzish xavfini keltirib chiqaradi¹".

Tayvanning tinch yo'l bilan qo'shib olinishi XXR hukumatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda. Undan tashqari muammoni hal etilishi davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Chunki hozirgi kunda davlat hududi yaxlitligini saqlab qolish jahon siyosatida eng muhim masalalardan biriga aylanib qoldi. Tayvan muammosining hal qilinishi xalqaro munosabatlarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlatlar o'rtasidagi muammolarda murosa yo'lini tanlashga hamda xalqaro huquq prinsiplariga bo'lgan hurmatni oshishiga xizmat qiladi. Tayvanning mustaqil bo'lishi nafaqat XXR uchun balki, mintaqa mamlakatlari uchun salbiy ta'sir o'tkazadi. Bu muammoning kuchayib ketishi mintaqaning Yaqin Sharq kabi "qaynoq nuqta"lardan biriga aylanib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu muammoni o'rganish va tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б.11.

XXRning Tayvan muammosini hal qilishi uning iqtisodiy va siyosiy, jihatdan xalqaro munosabatlardagi oʻrnini belgilab beradi. “Yagona Xitoy” ni yaratish XXRning XXI asrdagi eng muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Oʻrganilgan adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, Xitoy siyosati, Tayvan masalasi bir qator mutaxassislar tomonidan tadqiq qilingan. Umuman mavzuning oʻrganilganlik darajasi borasida uni shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin, respublikamiz mutaxasislari hamda chet ellik mutaxasislarning ishlari.

Xitoy siyosatining oʻziga xos jihatlari, diplomatiyasi, ikki va koʻp tomonlama munosabatlari ayrim jihatlari hamda muammolari nazariy jihatdan yoritilgan mutaxassislar qatoriga A. Xoʻjayev, U.Y. Idivov, V.S. Kim, N.E. Karimova, Sh.A. Sabitov, G.A. Melibayeva, Sh.I. Shozamanov, I.N Bekmurotov¹ va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin. Xususan, Xoʻjayev A. ilmiy asarlarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi Xitoy taʼsirining tarixiy asoslari va hozirgi holati, ularning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotiga boʻlgan taʼsiri, Karimova N.E. Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakalari oʻrtasidagi munosabatlarning tarixiy ildizlari va unda Buyuk Ipak yoʻlining oʻrni, Bekmurotov I.N Xitoyning Markaziy Osiyoda tutgan oʻrni, Shanxay Hamkorlik tashkiloti doirasidagi faoliyati va unda amalga oshirayotgan loyihalar, ularning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotiga boʻlgan taʼsiri chuqur tadqiq etilgan. Mavzuni oʻrganilganlik darajasida koʻrishimiz mumkinki Respublikamizda Xitoy tarixi,

¹ Ходжаев А. Китайские фактории в Центральное Азии / АН РУз, Ин-т востоковедения им. – Т.: Фн, 2004 / Буюк Ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. / Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. – Т.: 2007; Идиров У.Ю. Замонавий Хитой ташки сиёсатидаги етакчи тенденциялар. Мақола. Хитойшуносликнинг долзарб масалалари: филология, фалсафа, тарих, иқтисод ва сиёсат. мавзусидаги XII илмий-амалий конференция материаллари тўплами: Тошкент, 28 ноябр 2015 йил. – Т.: ТДШИ, 2015. – 245-246-б.; Ким. В.С. Политическая идеология Китая XX века: генезис, эволюция и современность [Рукопись] : дис. ... д-ра полит. наук / Валерий Семенович Ким; РУз ТашГИВ. – Т., 1995. – 322 с.; Каримова Н.Э. Региональные аспекты современных международных отношений. – Т.:2013.168 с. / Historic Central Asian Cities on the Silk Road: with Reference to Cheng Chen’s Journey to Central Asia // Waseda Journal of Islamic Sciences. Tokyo: Institute of Islamic Sciences, Waseda University. – Vol.5. 2009. P. 43-50.; Сабитов, Шукур Абдурахманович. Внешняя политика Китая в годы реформ (1978-1998г.) и перспективы сотрудничества с Республикой Узбекистан [Рукопись] : дис. ... канд. полит. наук : 23.00.02 ; Ш. А. Сабитов ; МИД РУз Ун-т Мировой Экономики и Дипломатии. – Т., 2002. – 167 с.; Шазаманов Ш.И. Ислохотлар даврида Хитой Халқ Республикаси // Монография. Т.: Тошкент давлат шаршунослик институти, 2014. – 167 б.; Melibayeva G.A, Gaziyeu F.Sh. :“Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi” oʻquv qoʻllanma. – Т. 2011; Bekmurotov И.Н. Шанхай хамкорлик ташкилотининг фаолияти ва институциялашиш жараёни: 23.00.02 / ЎзР Президенти ҳузуридаги давлат ва жамият қурилиши академияси. - Ўтв. 28.11.2006; К.28.11.06-20058 /562/08. – Т., 2006. – 147 б. – Библиогр.: – Б.134-147.

siyosati va diplomatiyasi keng tadqiq qilingan. Ammo Xitoy siyosatida Tayvan masalasiga keng to'xtalib o'tilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun mazkur bitiruv malakaviy ishida bu muammoni o'rganish va tahlil qilish vazifasi qo'yildi.

XXRning Tayvan muammosi bo'yicha ilmiy ish olib borgan G'arb mutaxassislariga Peter Chou, Yuan Peng, Vinsent Vang, Kerriy Dumbau¹ asarlarini keltirish mumkin.

Rus xitoyshunos olimlaridan Siganov Y., Gudoshnikov L., Kulik B., Barishnikov V., Lejenina T², xitoylik olimlardan Tan Chjenjuy, Yang Sue Tun, Li Tang, Syu Sinfu³ kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari va maqolalarida muammoning ayrim jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi Xitoy siyosatida Tayvan muammosini hal qilishda ichki va tashqi omillarni o'rganish va tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- Davlatlar tuzilish shaklining o'ziga xos hususiyatlarini tadqiq etish;
- Xitoy Xalq Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishining o'ziga xos hususiyatlarni o'rganish;
- Tayvan muammosining kelib chiqish sababini yoritib berish;
- AQSh, Yaponiya va Rossiyaning Tayvan muammosiga nisbatan bo'lgan munosabatini qiyosiy tahlil qilish;

¹ Peter C.Y. Chow. National Identity and Economic Interest // Taiwan's competing Options and Their Implications for Regional Stability. NY., 2012. – 141 p.; Yuan Peng. The Taiwan Issue in the Context of New Sino – U.S. Strategic cooperation // The Brookings institution. Center for Northeast Asian Policy Studies., 2004. – P.29-31.; Vincent Wei-Cheng Wang. The Chinese Military and the "Taiwan Issue": How China Assesses Its Security Environment. // University of Richmond. Southeast Review of Asian Studies .,Volume 29 . – 2007. – 119 p.; Kerry Dumbaugh. Taiwan's Political Status: Historical Background and Ongoing Implications // Congressional Research Service. June 4, 2009. –30 p.; Emerson M.S. Niou. A Strategic Analysis of the Taiwan Independence Issue // Duke University program in political economy, 1998. – 29 p.

² Цыганов Ю. Тайвань в структуре безопасности Восточной Азии. – М., 1998. – 145 с.; Кулик Б. США и Тайвань против КНР. – 1995. – № 5. – 234 с.; Барышников В.Н. Тайванский вопрос в китайско-американских отношениях. –М.1969. 178 с.; Леженина Т. Тайвань: ответ на вызовы XXI в. 2003. – 298 с.

³ 谭郑睿. 中美象棋板中的台湾问题 (Tan Chjenyuy. Tayvan AQSh va Xitoy shaxmat doskasida). – Beijing., – 340 页.; 杨雪彤. 美国的霸权与中国的安全 (Yang Suetun. AQShning gegemonligi, Xitoyning xavfsizligi) – Beijing., 2000. – 250 页.; 林冈. 台湾问题: 美国对华政策中的两难议题 (Li Tang. Tayvan masalasi: Xitoy-AQSh munosabatlaridagi dilemma) //上海交通大学 国际与公共事务学院.-Shanghai. 2010. 页 65-78.; 徐庆福. 台湾 21 世纪 (Syu Sinfu. Tayvan XXI asrda) Taipei.,2001 . – 156 p.

- XXR hukumatining Tayvan muammosini hal etish borasidagi yondashuvlarini o'rganish;
- “yagona davlat – ikki tizim” siyosatining ichki mexanizmini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Xitoy Xalq Respublikasining Tayvan masalasi bo'yicha siyosati.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Xitoy Xalq Respublikasining Tayvan masalasini hal etish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar, nazariy yondashuvlar, uslubiy asoslar, amaliy muammolar, hamkorlik yo'nalishlarini kengaytirish yo'llari bitiruv malakaviy ishning predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asoslari. Mazkur ishning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari va nutqlari, rasmiy nashr etilgan hujjatlar, Xitoy Xalq Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, xalqaro shartnomalari, Xitoyning tashqi siyosiy konsepsiyasi, BMT rezolyutsiyalari, Tayvan masalasi bo'yicha XXR va AQSh, XXR va Yaponiya o'rtasida imzolangan shartnomalar, shuningdek taniqli siyosatshunos olimlarning Tayvan masalasiga bag'ishlangan nazariyalari va ta'limotlari tashkil etdi. Bu o'rinda malakaviy ishni o'rganishda quyidagi hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi: 1971 yil 25 oktabrda 2758 raqamli “Xitoy Xalq Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotida qonuniy huquqlarini tiklash” haqidagi Bosh Assambleyaning rezolyutsiyasi va Tayvan masalasi bo'yicha XXR va AQSh o'rtasida imzolangan uchta kommunique. XXR va Yaponiya o'rtasida Tayvan masalasi bo'yicha imzolangan shartnoma. XXR va Tayvan o'rtasida imzolangan shartnomalar.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishini yoritishda internet manbalaridan ham foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va tarkibi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-bob. XALQARO MUNOSABATLARDA DAVLATLAR TUZILISH SHAKLINI O'RGANISHNING NAZARIY–METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Xalqaro munosabatlarda davlatlar tuzilish shaklini o'rganishning nazariy - huquqiy asoslari

Davlatning amal qilish tarixi shu narsani ko'rsatadiki, turli xil davlatlar bir-biridan o'zlarining ichki tuzilishi jihatidan farq qilgan, jumladan: hududiy bo'linish uslublariga ko'ra (ma'muriy-hududiy bo'linmalar, siyosiy avtonom bo'linishlar, davlatning tashkiliyligi va b.), va davlat hokimiyatining markazlashuvi darajasi bo'yicha (markazlashgan, demokratik sentralizm tamoyiliga asosan tashkil etilgan va b.).

Davlat tuzilishi – bu davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy tuzilishi bo'lib, davlatni o'zining tashkil etuvchilariga bo'lgan munosabatining xarakteri tushiniladi¹.

Davlat tuzilishi shakli deganda davlat hududini tashkil qilish hamda ushbu hududdagi aholini qaysi usulda boshqarishni nazarda tutiladi.

Davlatning tuzilish shakli sodda va murakkab turlarga bo'linadi. Yagona millatli davlatning tuzilishi asosan unitar (sodda) shaklda bo'lsa, ko'pmillatli davlatlarda esa federativ (murakkab) shakl qo'llaniladi. Shunday qilib, davlatning tuzilish shakli, uning subyektlariga bo'lgan munosabatidan kelib chiqqan holda unitar va federativ shakllarga bo'linadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, davlatning tuzilish shakli har doim ham millat hususiyatiga qarab belgilanmaydi. Bu o'rinda aholining hukumat bilan aloqasi ham nazarda tutiladi. Ya'ni ba'zi ko'pmillatli davlatning tuzilish shakli unitar bo'lishi mumkin (Xitoy, Vetnam va b.q) yoki asosan hududiy tamoyilni hisobga olib federativ shaklga ega davlatlar ham mavjud (Germaniya, AQSh va b.q). Davlat tuzilish shaklini tahlil qilgan holda bu tushunchani ifodalovchi bir qancha elementlarni ko'rsatib o'tish lozim.

¹ Хропанюк В.Н. Теория государства и права: Учебное пособие. – М.: Юриспруденция, 1996. – С. 147.

Birinchiidan, davlat tuzilish shakli uning boʻlinishi uchun emas balki yaxlitligini taʼminlash uchun xizmat qiladi. Ayrim davlatlarning tarkibi hatto Konstitutsiyada ham aks etishi mumkin.

Ikkinchiidan, davlat tuzilish shakli albatta davlat va uning tarkibiy qismlarining oʻzaro munosabatidan kelib chiqadi.

Uchinchiidan, davlat tuzilishi suverenitet asosida davlat va uning subyektlari oʻrtasidagi vakolatlari chegarasini belgilab beradi. Koʻplab davlatlarda (unitar, federativ) hukumat toʻliq ravishda davlatga tegishli boʻladi. Shuni taʼkidlab oʻtish kerakki, agar federativ davlat millatlar asosiga tuzilgan boʻlsa (masalan Sobiq Ittifoq) yuridik jihatdan ushbu davlatlarning suvereniteti mustahkamlab qoʻyiladi. Ammo, agar boshqaruv markazlashtirilgan boʻlsa unitar shakldagi federatsiya boʻladi.

Jahon siyosatining tajribasidan kelib chiqqan holda hozirgi kunda davlat tuzilishining unitar, federativ va konfederativ turlari mavjud. Unitar davlat – yagona, bir butun davlat tuzilishi hisoblanib, uning hududlari alohida suverenitetga ega boʻlmaydi. Unitar davlatda boshqaruv va hukumat ham yagona tizimga ega boʻladi, hamda barcha maʼmuriy-hududlar yagona yuridik statusda boʻladi; yagona pul; yagona qonunchilik tizimi; yagona boj va kredit siyosati; yagona qurolli kuchlar hamda yagona fuqarolik. Unitar davlatlar markazlashtirilgan (Daniya, Shvetsiya va b.q) hamda markazlashmagan (Ispaniya, Xitoy, Italiya va b.q) turlarga boʻlinadi. Markazlashmagan unitar davlat tarkibida avtonom hududlar mavjud boʻladi¹.

Unitar davlat yagona millatdan tashkil topgan va federativ davlat esa turli millatlardan tashkil topgan degan qarash mavjud. Ammo, amalda koʻpmillatli unitar shakldagi davlatlar ham mavjud. Ularga Afgʻoniston, Bolgariya, Xitoy, Pokiston va boshqa davlatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Federativ (lotincha – ittifoq) – davlat tuzilish shaklining murakkab shakli boʻlib, u bir qancha subyektlardan tashkil topadi. Federatsiya tarkibidagi subyektlar millat yoki hududiy tamoyilga koʻra birlashishi mumkin.

¹ Комаров С. А., Малько А. В. Теория государства и права. – М.: НОРМА, 2001 г. – С.227.

Hududiy tamoyilga koʻra birlashgan federatsiyalar nisbatan mustahkam va barqaror boʻladi. Bunga misol qilib AQSh, Germaniya, Braziliya davlatlarini keltirishimiz mumkin. Milliy-hududiy tamoyilga koʻra birlashgan davlatlarga Hindiston, Belgiya, Rossiya Federatsiyasini misol qilib keltirishimiz mumkin. Shuni ham taʼkidlab oʻtish kerakki, milliy-hududiy tamoyilga koʻra birlashgan davlatlarni boshqarish nisbatan murakkab hisoblanadi. Chunki bu tarzda birlashgan davlatlarning koʻpchiligi parchalanib ketgan (misol uchun Sobiq ittifoq, Chexoslovakiya, Yugoslaviya)¹.

Federativ davlatlar umumfederal konstitutsiya, umumfederal qonunlar bilan birgalikda, subyektlarning oʻziga xos qonunlari mavjud boʻlishi bilan xarakterlanadi. Federatsiya subyetlarining qonunlari faqatgina oʻsha hududgagina taaluqli boʻladi.

Davlatlarning xalqaro huquq normalari asosida birlashgan konfederativ turi ham mavjud. Konfederatsiyaga asosan davlatlar tashqi siyosiy va harbiy maqsadlarga birgalikda erishish uchun birlashgan. Konfederatsiyaga birlashgan davlatlarning koʻpchiligi keyinchalik federatsiyaga aylanib ketgan. Bunga AQSh va Shvetsariyani misol qilib keltirish mumkin. Bu davlatlar dastlab konfederativ ittifoqqa birlashgan².

XX asrdan boshlab davlatlar konfederatsiya tuzishga urinishdi. Ammo ularning koʻpchiligi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bunga Birlashgan Arab amirliklari, Misr va Suriya hamda Senegambiya (Senegal va Gambiya) kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin³.

Konfederatsiyaning oʻziga xos jihatlari quyidagilar konfederatsiya shartnoma asosida tuziladi; har bir davlatning suvereniteti saqlanib qolinadi; konfederatsiya boshqaruv organlari faqat qoʻyilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchungina tuziladi; subyektlar xohlagan vaqtda konfederatsiyadan chiqish

¹ Тавадов Г.Т. Современные федерации и их субъекты // Социально-политический журнал, 1997.– № 1.– С.39

² Очилов Б.Э., Одилкориев Х.Т. Ҳозирги замон халқаро оммавий ҳуқуқи: Дарслик. – Т.:Тошкент давлат юридик институти, 2007. – Б.99-100.

³ О'sha yerda.

huquqini saqlab qoladi; yagona fuqarolik, yagona konstitutsiya mavjud bo'lmaydi¹.

Davlat tuzilishi qaysi shaklda bo'lsin uning hududlari ma'muriy-hududiy jihatdan bo'linadi. Ma'muriy-hududiy bo'linish faqat geografik omilga qarab belgilanmaydi balki, bunda hududdagi aholining turmush-tarzi hamda hududning iqtisodiy, siyosiy va milliy prinsiplari ham hisobga olinadi.

Iqtisodiy prinsipda davlatning tabiiy-geografik va ishlab chiqarish salohiyati, hududning hajmi, aholining soni va zichligi e'tiborga olinadi. Milliy prinsip ko'pmillatli davlatlar uchun juda muhim hisoblanadi.

Siyosiy prinsip davlatning ma'muriy-hududiy bo'linish orqali aholini boshqarishni osonlashtirish hamda mahalliy hokimiyat organlarini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Shunday qilib, davlatning tuzilishi uning hududini tashkil qilish hamda ushbu hududdagi aholini boshqarish yo'lini belgilab beradi. Endi har bir davlat tuzilishini alohida ko'rib chiqamiz.

Bugungi kunda unitar davlatlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Buyuk Britaniya, Italiya, Shvetsiya, Finlandiya, Norvegiya, Fransiya, Ispaniya, Niderlandiya, Portugaliya, Gretsiya, Kambodja, Laos, Tailand, O'zbekiston, Lotin Amerikasi va Afrikaning ko'plab davlatlari unitar davlatlarga misol bo'ladi².

Unitar davlat – davlat tuzilish shaklining eng ko'p qo'llaniladigan shakli hisoblanib, federatsiyadan farqli o'laroq alohida federativ birlashmalarga bo'linmaydi. Davlat hududi ma'muriy-hududiy jihatdan bo'linadi (tuman, viloyat) hamda bu hududlar markaziy hokimiyatga bo'ysunadi.

Unitar davlat xalqaro munosabatlarda xalqaro huquqning yagona subyekti sifatida qatnashadi. Shu bois, unitar davlatning tarkibiy qismlari (ma'muriy-hududiy birliklar) ning huquqiy subyektligi bilan bog'liq masala deyarli yuzaga kelmaydi³.

¹ Федерация в зарубежных странах./ Отв. ред.: Ковачев Д.А. – М., 1993. – С. 5-7.

² Общая теория права и государства: учебник / Под ред. В. В. Лазарева. – М., 1994 г. – С. 145.

³ Очилов Б.Э., Одилқориев Х.Т. Ҳозирги замон халқаро оммавий ҳуқуқи: Дарслик. – Т.: Тошкент давлат юридик институти, 2007. – Б.99.

Unitar davlatning quyidagi oʻziga xos jihatlarini koʻrib chiqamiz:

Birinchi, unitar davlatda yagona qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud.

Ikkinchi, unitar davlat hududida yagona konstitutsiya, yagona qonunchilik tizimi, yagona fuqarolik, yagona pul va kredit siyosati amal qiladi.

Uchinchi, unitar davlatni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar (tuman, viloyat, graflik, provinsiya, okrug) suveren huquqlarga ega boʻlmaydi. Bu tarkibiy qismlarning markaziy hokimiyatga bogʻliqlik darajasiga qarab unitar davlat markazlashgan va markazlashmagan turlarga boʻlinadi. Markazlashgan unitar davlatning mahalliy hokimlari asosan davlat rahbari tomonidan tayinlanadi. Markazlashmagan unitar davlatda esa mahalliy hokimlar asosan aholi tomonidan tayinlanadi. Baʼzi unitar davlatlarda markazlashgan va markazlashmagan turlarining ayrim jihatlarini aralashib ketgan.

Toʻrtinchi, unitar davlatlarning hududlarida yashayotgan kam sonli millatlar avtonom (muxtor) maqomini olishi mumkin. Misol uchun Mongoliyada Bayan-Ulegey hududida asosan qozoqlar yashagani uchun avtonom maqomi berilgan. Ozarbayjon, Tojikiston, Gruziya kabi davlatlarda avtonom hududlar mavjud. Xitoyda esa 5 ta avtonom hudud mavjud.

Beshinchi, unitar davlatning tashqi siyosati faqat markaziy hokimiyat tomonidan amalga oshiriladi.

Oltinchi, unitar davlatning yagona armiyasi mavjud boʻladi.

Unitar davlatlarning asosan maʼmuriy-hududiy boʻlinishi davlatning aholisi va maydoniga qarab belgilanadi. Lekin, har doim ham maʼmuriy-hududiy boʻlinish bu jihatlarga qarab belgilanmaydi.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, mahalliy hokimiyat organlarining markaziy hokimiyatga bogʻliqlik darajasiga qarab unitar davlat markazlashgan va markazlashmagan turlarga boʻlinadi. Markazlashmagan unitar davlatda markaziy hokimiyat va hududlarning vakolatlari konstitutsiyada belgilab qoʻyiladi. Bu jihatdan u federativ davlatga oʻxshab ketadi.

Markazlashgan unitar davlatning tarkibida umuman avtonom hudud mavjud boʻlmaydi. Bu davlatlar boshqaruvida asosan avtoritar tuzum mavjud boʻladi. Bunda maʼmuriy-hududiy boʻlinishi va bu hududlarning markaziy hokimiyatga qanchalik bogʻliq ekanligi bilan farqlanadi. Misol uchun Turkiyada markazlashgan va markazlashmagan unitar davlat jihatlari aralashib ketgan. Turkiyada mahalliy hokimiyat markaziy hukumat vakillari tomonidan boshqariladi, lekin undan tashqari mahalliy hokimiyatning Bosh Kengashi va uning ijro etuvchi organi –Enjomenlar mavjud, Shaharlarda mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlari qishloqlarda esa oqsoqollar kengashi mavjud¹.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, unitar davlat – bu yagona davlat tuzilishi shakli. Davlat maʼmuriy-hududiy qismlarga boʻlinadi. Unitar davlatda yagona boshqaruv, yagona sud tizimi va yagona konstitutsiya mavjud boʻladi. Unitar davlat yagona bozorni shakllantirish maqsadida vujudga kelgan.

Davlat tuzilishining nisbatan murakkab shakli federatsiya hisoblanadi. Federatsiya – bu bir necha davlatlar ittifoqi boʻlib, bu davlatlar qaysidir darajada suverenitetga ega boʻladi².

Federatsiya atamasi lotin tilidagi “foedus” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib “shartnoma” yoki “ittifoq” maʼnolarini anglatib, bir necha davlatlarning shartnoma asosida birlashgan ittifoqini bildiradi. Ammo bu yondashuv yuridik jihatdan butunlay toʻgʻri emas, chunki bu asosan grammatik yondashuvdir. Gap shundaki, davlatlar ittifoqi federatsiyadan koʻra kengroq maʼnoga ega. Undan tashqari federativ davlatlarning hammasi ham shartnoma asosida birlashmagan. Federatsiya bu tarqoq davlatlarning ittifoqi emas balki, ittifoqqa birlashgan yagona davlat hisoblanadi. Federatsiyada shartnoma asosida ittifoq tuzilishi yoki hech qanday ittifoq sifatlariga ega boʻlmasligi ham mumkin.

Federatsiyaning muxtor va ittifoq turlari mavjud. Har bir federativ davlatning oʻziga xos jihatlari mavjud. Federatsiyani tashkil qiluvchi subyektlar turlicha nomlar (respublika, shtat, kanton, yer va h.k) bilan nomlanishi mumkin. Federatsiya

¹ Конституции зарубежных государств: Учебное пособие. — М.: Изд-во «Юристъ», 1996. — С. 102.

² Комаров С. А., Малько А. В. Теория государства и права. — М.: НОРМА, 2001 г. — С. 184.

hududi uni tashkil qilgan subyektlar hududidan tashkil topadi, federatsiya subyekti fuqarosi o'z navbatida butun federatsiya fuqarosi hisoblanadi¹.

Federativ davlatlarning subyektlari soni turlicha bo'ladi: AQShda – 50 ta, Avstraliya ittifoqida – 6 ta, Kanadada – 10 ta, Avstriyada – 9 ta, Belgiyada – 3 ta, Germaniyada – 16 ta, Shvetsariyada – 23 ta, Argentinada – 22 ta, Braziliyada – 26 ta, Venesuelada – 20 ta, Hindistonda – 25 ta, Pokistonda – 4 ta, BAAda – 7 ta, Malayziyada – 13 ta, Nigeriyada – 21 ta, Komor orollarida – 3 ta².

Federativ davlatda federal qurolli kuchlar, yagona moliya, soliq va pul birligi mavjud. Tashqi siyosatni federal organlar amalga oshiradi.

Federativ davlatda jamiyatning hukumatga nisbatan munosabatiga ko'ra ham farq qiladi. Masalan AQSh, Germaniya, Meksika kabi federativ davlatlar milliy jihatga ko'ra bo'linmagan. Rossiya Federatsiyasi, Hindiston davlatlari esa ko'pmillatli davlat bo'lganligi uchun, uning har bir subyekti alohida maqomga ega bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasi ham o'ziga xos shakllangan federativ davlat hisoblanadi. Uning asosi birlik va davlat yaxlitligi yotadi. Davlat federativ bo'lsada unitarizm tamoyillariga asoslanadi, hamda siyosatni asosan markaziy hukumat olib boradi³.

Hozirgi kunga kelib 20 ga yaqin davlatlar federativ tuzilishga ega. Avstriya, Germaniya, Belgiya, Hindiston, Malayziya, AQSh, Kanada, Argentina, Braziliya, Venesuela, Nigeriya, Efiopiya, Avstraliya, Mikroneziya Qo'shma Shtatlari kabi davlatlar federatsiyaga misol bo'ladi. Federativ davlatlar orasida yuksak rivojlangan (AQSh) va kichik industrial (Belgiya), maydoni jihatidan yirik (Braziliya) va kichik (Komor orollari) davlatlarni uchratish mumkin.

Unitar davlatdan farqli o'laroq federativ davlat nisbatan murakkab hisoblanib, bir qancha jihatlari bilan bir-biridan ham farqlanadi. Federatsiya o'zida yuridik va siyosiy mustaqil huquqlarga ega davlatlar ittifoqini o'zida

¹ Тавадов Г.Т. Современные федерации и их субъекты // Социально-политический журнал, 1997. — № 1. — С.38

² O'sha yerda.

³ Общая теория права и государства: учебник / Под ред. В. В. Лазарева. — М., 1994 г. — С. 263-264.

namoyon qiladi¹. Federatsiya tashkil qiluvchi subyektlar (shtat, yerlar, provinsiyalar, kantonlar, davlatlar) o'zining ma'muriy–hududiy tuzilishiga ega bo'ladi. Federativ davlat quyidagi jihatlari bilan unitar davlatdan farq qiladi:

1. Unitar davlatdan farqli o'laroq federativ davlatning siyosiy-ma'muriy bo'linish o'zida yagona bir butunlikni ifodalamaydi. Chunki u federatsiya subyektlari hududlaridan tashkil topgan. Lekin, ba'zi federativ davlatlar tarkibida shunday hududiy birliklar mavjudki ular federatsiyaning subyekti hisoblamaydi. Lekin federatsiyani tashkil qilayotgan davlatlarni, ichki va tashqi siyosatda to'la suveren bo'lgan davlatlar bilan adashtirmaslik kerak. Federatsiya subyektlari bevosita xalqaro munosabatlarda ishtirok eta olmaydi. Agar biror federatsiya subyekti ittifoq konstitutsiyasi qonunlariga qarshi chiqsa markaziy hukumat tomonidan unga nisbatan chora-tadbirlar qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Bu huquq ba'zi federativ davlatlar konstitutsiyada mustahkamlanib qo'yilgan. Agar bu modda konstitutsiyada aks ettirilmagan bo'lsa federatsiya subyektlarini kuch bilan ushlab turadi. Federatsiya subyektlari bir tomonlama tarkibdan (sesessiya huquqi) chiqish huquqiga ega bo'lmaydi. Ammo sesessiya huquqi federatsiyaning majburiylik beligisi sifatida qaralmaydi. Bunga Mali federatsiyasidan Senegalning chiqib ketishi, Singapurning Malayziya federatsiyadan chiqib ketishi, Bangladeshning Pokiston federatsiyasidan chiqib ketishi misol bo'ladi.

2. Federatsiya subyekti o'z ta'asis etuvchi hukumati tuzish huquqiga ega bo'ladi, misol uchun o'z konstitutsiyasiga ega bo'lish huquqi. Lekin, shu o'rinda ba'zi federativ davlatlar bunday subyektlarga bunday huquqni bermasligi ham mumkin. Bu huquq federatsiyaning umumiy konstitutsiyadan kelib chiqadi. Federatsiya tarkibidagi subyektlar konstitutsiyasi ittifoq konstitutsiyasi bilan to'laligicha muvofiq kelishi lozim. Germaniyaning asosiy qonunida shunday deyilgan: “yerlarning konstitutsiyaviy tuzilishi davlatning asosiy qonunining demokratik va ijtimoiy prinsiplariga to'la muvofiq kelishi lozim”².

¹ Федерация в зарубежных странах. / Отв. ред.: Ковачев Д.А. —М., 1993. — С. 10.

² Конституция ФРГ // Конституции зарубежных государств: учебное пособие. — М., 1997 г. — С. 57

3. Federatsiya subyektlari o'z hududida qonun chiqarish huquqiga ega bo'ladi. Albatta bu qonunlar asosiy qonunlarga muvofiq kelishi kerak. Butun federatsiya uchun majburiy bo'lgan umumfederal qonunlar konstitutsiyada aks etadi. Federatsiya subyektlarida umumittifoq qonunlari hukm suradi. Markaziy hukumat har bir subyekt uchun alohida qonun chiqarish huquqiga ham ega bo'ladi¹.

4. Federatsiya subyekti o'z qonunlari va sudiga ega bo'lishi mumkin. Subyektlarning sud organlari yurisdiksiyasi ittifoq konstitutsiyasida aks ettiriladi. Huddi federatsiya subyektlarining konstitutsiyasi kabi sud organlari ham ittifoqning bosh sudiga bo'ysunadi.

5. Ikkita fuqarolikning mavjud bo'lishi federatsiyaning rasmiy belgilaridan biri hisoblanadi. Har bir fuqaro federatsiya subyektlari fuqarosi hamda o'z navbatida ittifoqning fuqarosi hisoblanadi. Ikki fuqarolik tizimi ko'plab federativ davlatlar konstitutsiyada belgilab qo'yilgan. AQShda ikki fuqarolik ikkinchi bob to'rtinchi moddada qayd etilgan. Bu tizim Germaniya, Avstriya, Shvetsariya mavjud. Hindiston, Malayziya kabi federativ davlatlarda esa yagona fuqarolik tizimi o'rnatilgan².

6. Ikki palatali parlament mavjud bo'lishi federativ davlatning majburiy belgilaridan biri sifatida ko'riladi. Ammo bu umumiy qoida faqatgina ikkinchi jahon urushidan so'ng ommalashdi. AQShda har bir shtat yuqori palataga ikkitadan senator jo'natadi. Ikkinchi tamoyil bo'yicha esa yuqori palataga vakillik saylanish subyektlarning aholisi soniga qarab belgilanadi. Misol uchun Avstraliyada subyektlarning yuqori palataga vakillar soni 3 tadan 12 tagacha bo'lishi mumkin. Kanadada esa quyidagi qoida o'rnatilgan: Ontario va Kvebekdan – 24 ta, yangi shotlandiya va Nyu–Bransuikdan – 10 ta, Manitoba, Saskachivan va Nyufaundlenddan – 6 ta, Shahzoda Eduard orolidan – 4ta³.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jihatlar federatsiyaning unitar va konfederativ tuzilishdan farq qiladi. Ittifoq va subyektlar vakolatlari chegarasini belgilash

¹ Конституции зарубежных государств: Учебное пособие. — М.: Изд-во «Юристъ», 1996. — С. 102.

² O'sha yerda.

³ O'sha yerda.

federatsiyaning eng murakkab jihati hisoblanadi. Ya'ni ittifoqning qonun chiqaruvchi organi hisoblangan parlament va subyektlarning qonun chiqaruvchi organlarining vakolatlari haqida so'z yuritilmoqda. "Dualistik federalizm" tamoyiliga ko'ra konstitutsiya bo'yicha ittifoq faqat ma'lum masalalar yuzasidan normativ akt qabul qiladi. Konstitutsiyada ko'rsatilmagan boshqa masalalar yuzasidan esa subyektlar o'zi qonun chiqarish huquqiga ega bo'ladi. Birinchi marta bu tizim AQShda qo'llanilgan edi. Amerika konstitutsiyasida ittifoq va shtatlar vakolatlari aniq belgilab qo'yilgan edi.

Dualistik tamoyil Braziliya, Shvetsariya, Meksika, Avstraliya davlatlari qo'llaniladi. Bu tamoyil ittifoqning qonun chiqaruvchi organi va subyektlarning qonun chiqaruvchi organlari vakolatlari chegarasi belgilab qo'yilgan davlatlarda qo'llaniladi. Lekin bu tamoyilda subyektlarning vakolatlari aniq chegarlab qo'yilgan bo'lsa, ittifoqning vakolatlari ba'zi yangi ijtimoiy- siyosiy vaziyatlarga qarab kengayishi mumkin. Ba'zi federativ (Avstriya, Germaniya) davlatlarda vakolatlar doirasining quyidagi tizimi o'rnatilgan: ittifoqning mutlaq vakolatlari va subyektlar o'rtasida raqobat asosida o'rnatilgan vakolatlar. Bu tizimda subyektlarning qonun chiqarish vakolati ancha kamaytiradi. Hindistonda uch bosqichdagi ittifoq va subyektlar o'rtasida vakolatlar doirasi tizimi o'rnatilgan. Bunda subyektlar ittifoq kabi birinchi darajali vakolatlarga ega bo'ladi. Lekin subyektlar moliyaviy jihatdan markaziy hukumatga qaram bo'ladi. Markaziy hukumat tomonidan subyektlarga dotatsiya va subsidiyalar belgilanadi.

Vakolatlar doirasining boshqaruv tizimlari turlicha bo'lishiga qaramasdan subyektlarning barcha boshqaruv organlari markaziy hukumatnikiga muvofiq tuziladi. Chunki yuqorida aytib o'tilganidek subyektlar o'z davlat qurilishiga ega bo'lishi shartli ravishda bo'ladi. Chunki ular alohida suveren davlatlar emas. Ko'plab federatsiyalarda subyektlarning qonun chiqaruvchi organi bir palatali hisoblanadi. Lekin ba'zi federatsiyalarda istisnolar mavjud. Misol uchun Kanada faqat Kvebek provinsiyasida, Germaniyaning Bavariya yerida ikki palatali tizim mavjud. Avstraliyada esa Kvinslend shtatidan tashqari barchasida ikki palatali tizim mavjud.

1949 yil 21 oktabrda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topdi. Xitoyning davlat tuzilishi uning anʻanaviy qadriyatlarga asoslangan holda shakllangan. Xitoy konstitutsiyasiga koʻra unitar davlat boʻlsa ham uning tarkibida federatsiyaga xos avtonom hudud va alohida maqomga ega hududlari mavjud. Syangan va Aomen hududlari maxsus boshqaruv hududlari hisoblanadi. Ularda boshqa tizim amal qiladi. Uning tarkibida boʻlgan Tayvan provinsiya maqomida boʻlsa ham, bu hududda alohida siyosiy tizim shakllangan.

Xulosa qilib aytganda, davlatlarning tuzilish shakli uning tarixiy, siyosiy, milliy, diniy, madaniy qadriyatlarini hisobga olgan holda shakllanadi. Davlat qaysi usuldagi tuzilish shakli boʻlmasin, u birinchi navbatda davlatning hududiy yahlitligi va boʻlinmasligi uchun xizmat qilishi lozim.

1.2. Xitoy Xalq Respublikasi tuzilish shaklining oʻziga xos xususiyatlari

Xitoy – (rasmiy nomi Xitoy Xalq Respublikasi) Sharqiy Osiyodagi sotsialistik davlat. Aholisi soni jihatidan dunyoda 1-oʻrinni egallaydi (1,36 mlrd. kishi). Hududi kengligi jihatidan Rossiya va Kanadadan keyin 3-oʻrinni egallaydi. Aholining asosiy qismi xan millatiga mansub xitoyliklar tashkil qiladi. Poytaxti – Pekin shahri.

Xitoy Xalq Respublikasi 1949 yil 1 oktabrda tashkil topgan. Xitoy Xalq Respublikasi (keyingi oʻrinlarda Xitoy) tashkil topgandan beri 4 marotaba davlat konstitutsiyasi qabul qilingan (1954, 1975, 1978 va 1982 yil). Dastlabki konstitutsiya Sobiq Ittifoq va boshqa sotsialistik davlatlar konstitutsiyasi asosida tuzilgan. 1982 yilgi konstitutsiyaga koʻra sotsialistik, xalq diktaturasi oʻrnatilgan davlat boʻlib, ishchi va dehqonlar ittifoqi asosida hukumat boshqariladi¹.

Xitoyda oʻziga xos davlat tuzilish shakli tashkil topgan. Konstitutsiyaga koʻra Xitoy davlat tuzilishi avtonom maʼmuriy-hududiy hududlarga ega markazlashgan unitar davlat hisoblanadi. Boshqa unitar davlatlardan farqli oʻlaroq

¹ Гудошников Л.М. Конституция Китайской Народной Республики в процессе исторических перемен и реформ // Проблемы дальнего востока. 2002. — № 3. — С. 27.

Xitoyda turli darajadagi avtonom hududlar mavjud. Maʼmuriy-hududiy masalalar doimo Xitoy hukumati diqqat markazida turadi. Chunki, katta hudud va koʻp millatga ega boʻlgan davlatning asosiy vazifasi mamlakatda hududiy yahlitlik va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash hisoblanadi. Xitoy tashkil topgandan beri davlatning maʼmuriy-hududiy tuzilishi juda katta oʻzgarishlarga uchramadi. Xitoyning maʼmuriy-hududiy tuzilishi tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-demografik, til dialekti kabi omillarga qarab belgilangan. Lekin, asosiy eʼtibor mamlakatning hududiy yahlitligi va boʻlinmasligiga hamda hududlarning separatistik siyosatini oldini olishga qaratilgan.

Hozirgi kunda Xitoy hududi 23 ta provinsiya, 5 ta avtonom hudud, markazga boʻysunuvchi 4 ta shahar va maxsus boshqaruv hududlardan iborat. Oʻz navbatida provinsiya va avtonom hududlar avtonom okruglar, avtonom uyezdlar va shaharlarga; uyezdlar va avtonom uyezdlar esa volost va posyolkalarga; markazga boʻysunuvchi shaharlar va yirik shaharlar esa tuman va uyezdlarga boʻlinadi. Avtonom hududlar, avtonom okruglar va uyezdlar milliy avtonom hududlar hisoblanadi¹.

Xitoy konstitutsiyasining 31-moddasiga koʻra mamlakatda huquqiy holati maxsus qonunlar bilan belgilanadigan “maxsus maʼmuriy hudud” lar tashkil etish mumkin². Xususan 1997 yilda Syangan (Gongkong) va 1999 yilda Aomen (Makao) hududlari shunday maqomni olgan holda davlat tarkibiga kiritildi. Hududlarni oʻzgartirish faqat Butun Xitoy xalq vakillari kengashida hal qilinadi. Xususan provinsiyalar, avtonom hududlar va markazga boʻysunuvchi shaharlarni Butun Xitoy xalq vakillari kengashi qarori bilan tashkil etiladi. Provinsiyalar, avtonom hududlar va markazga boʻysunuvchi shaharlarning hududiy boʻlinishi Xitoy Davlat kengashi tomonidan boshqariladi³.

Provinsiyalar Xitoy maʼmuriy-hududiy tuzilishida asosiy birligi hisoblanadi. Xitoyning provinsiyaga boʻlinishi bundan 600-700 yil oldin boshlangan. Yuan

¹ Государственное устройство и форма правления Китая. // http://estnauki.ru/geo/1-geografy/7171_gosudarstvennoe-ustroystvo-kitaya.html

² Конституция КНР. 2004 г. // http://abc.vvsu.ru/books/u_state_hist/page0132.asp.html

³ Страшун Б.А. Конституции социалистических государств / Б.А. Страшун. – М. : Спарк, 2001. – С 227.

sulolasi (1271–1368 yy.) davridan boshlab maʼmuriy-hududiy boʻlinish tizimi vujudga kelgan. Hozirgi kunda Xitoyda 23 ta provinsiya mavjud:

Xitoyning shimoliy sharqida – Xeylongjiang, Szilin va Lyaonin; shimoliy qismda – Xebey, Shansi; sharqiy qismda – Szyansu, Chjeszyan, Anxoy, Fuszyan, Shandun va Szyansi; markaziy qismda – Xenan, Xubey, Xunan; janubiy qismda – Guandun, Xaynan; janubiy–gʻarbiy qismda – Sichuan, Yunnan, Guychjou; shimoliy–gʻarbiy qismda – Shensi, Sinxay va Gansu. Maydoni jihatidan eng yirik provinsiya Sinxay hisoblanib, uning maydoni 720 ming km² ni tashkil etadi. Eng kichik provinsiya esa Xaynan boʻlib uning maydoni atigi 34 ming km² ni tashkil etadi. Xenan provinsiyasida aholi eng zich joylashgan. Iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan provinsiya esa Guandun boʻlib uning yalpi ichki mahsuloti 2012 yilga koʻra 5,7 trln. yuanni tashkil etdi¹.

Provinsiyalar asosan madaniy jihatni hisobga olib boʻlingan. Koʻplab provinsiyalar oʻrtasidagi chegaralar Min sulolasi davridayoq oʻrnatilgan. Provinsiyalar markaziy hukumatga boʻysunsa ham, hududda iqtisodiy sohada juda keng imtiyozlarga ega. Buni ayrim iqtisodchilar “xitoycha sotsializm” deb nomlashadi.

Davlatning maʼmuriy-hududiy tuzilishiga koʻra, hududlarda mahalliy boshqaruv tizimi vujudga kelgan. Bu boshqaruv organ xalq vakillari kengashi (XVK) boʻlib, joylarda davlatning ijroiya organi sifatida faoliyat olib boradi. Mahalliy boshqaruv organlarining huquqiy holati Xitoy konstitutsiyasi (III bob 5-boʻlimi) da keltirib oʻtilgan. Xalq vakillari kengashi joylarda davlat hukumatining organlari hisoblanadi. Provinsiyalar, avtonom hududlar va markazga boʻysunuvchi shaharlarda Xalq vakillari kengashining doimiy qoʻmitasi faoliyat olib boradi. Xalq vakillari kengashining doimiy qoʻmitasiga deputatlar provinsiyalar, avtonom hududlar, markazga boʻysunuvchi shaharlar, avtonom okruglar, uezdlardan aholi soniga qarab olinadi. Deputatlar 5 yil muddatga saylanadi².

¹ Китай-2013. Сборник. // Пекин.:Издательство литературы на иностранных языках, 2013 – С.52

² Конституция КНР. 2004 г. // http://abc.vvsu.ru/books/u_state_hist/page0132.asp.html

Xalq vakillari kengashi doimiy qoʻmitasi sessiya tartibida ishlaydi: sessiyalar bir yilda bir marta chaqiriladi, navbatdan tashqari sessiyalar esa deputatlarning 1/5 qismi taklifi bilan oʻtkaziladi. Sessiyani oʻtkazish uchun deputatlar bosh kotibiyatni tayinlashadi. Sessiya davomida provinsiyalarning gubernatorlari, avtonom hududlarning vakillari va shaharlarning merlari saylanadi. Xalq vakillari kengashi doimiy qoʻmitasi hududlardagi xalq vakillari kengashi qarorlarini oʻzgartirishi va bekor qilishi mumkin. Xalq vakillari kengashi doimiy qoʻmitasi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi muhim masalalarni hal qilish, hududlardagi millatlararo aloqalardagi masalalarni koʻrib chiqish, xalq hukumati, xalq sudi va xalq prokuraturasi ishini nazorat qilish, xalqning shikoyat va arizalarini koʻrib chiqish va boshqalar¹.

Uezd, avtonom uezd va kichik shaharlarda hududlardagi Xalq vakillari kengashi faoliyat yuritadi. Xalq vakillari kengashi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: Konstitutsiya, qonunlar va hukumat qarorlarini amalga oshirish; hudud uchun xalq xoʻjaligi rejasini ishlab chiqish va ularni bajarilish hisobotini berish; siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi masalalarda qarorlar chiqarish; fuqarolar huquqini himoya qilish, milliy ozchilikni himoya qilish, erkaklar va ayollar teng huquqliligini amalga oshirish va boshqalar.

Xitoyda xan millatidan tashqari yana 55 ta millat istiqomat qiladi. Bu millatlar ichida tibetliklar, uygʻurlar, moʻgʻullar, chjuanlar koʻpchilikni tashkil qiladi. Bu millatlarning separatistik harakatlarini oldini uchun avtonom hududlar tashkil etilgan.

Hozirgi kunda Xitoyda 5 ta avtonom hudud mavjud: Shinjon-Uygʻur avtonom hududi, Tibet avtonom hududi, Guansi-Chjuan avtonom hududi, Ninsya-Xuey avtonom hududi va Ichki Mongoliya avtonom hududi. Undan tashqari 30 ta avtonom okrug va 120 ta avtonom uездlar mavjud. Bu avtonom hududlar Xitoy umumiy maydonining 46%ini egallaydi².

¹ Государственное устройство и форма правления Китая. // <http://estnauki.ru/geo/1-geografy/7171-gosudarstvennoe-ustroystvo-kitaya.html>

² Китай-2013. Сборник. //Пекин.:Издательство литературы на иностранных языках, 2013 – С.56.

Xitoy avtonom hududlari milliy davlat xususiyatiga ega bo'lmaydi. Chunki Xitoy markazlashgan unitar davlat bo'lgani uchun bu hududlar faqatgina ma'muriy avtonom hisoblanadi. Avtonom hududlarning huquqiy holati Xitoy konstitutsiyasining III bob 6-bo'limida keltirib o'tilgan. Unga ko'ra uch turdagi avtonom hududlar, ya'ni avtonom tuman, avtonom okrug va avtonom uezd tashkil etilgan. Barcha avtonom hududlar Xitoyning ajralmas tarkibi hisoblanadi. Avtonom hududlar Butun Xitoy xalq vakillari kengashi tomonidan tuziladi¹.

Avtonom hududlarning boshqaruv organlari (xalq vakillari kengashi) Konstitutsiya va qonunlarga ko'ra hudud sharoitidan kelib chiqqan holda o'zining siyosatini yuritadi. Konstitutsiya va avtonom hududlar to'g'risidagi qonunlarga ko'ra avtonom hududlar quyidagi huquqlarga ega:

- hududda moliyaviy siyosatni olib borish;
- hudud shart-sharoitidan kelib chiqqan holda, iqtisodiy rejalar tuzish, iqtisodiy tizimni boshqarish, kapital qurilishlarni olib borish, kadrlar tayyorlash;
- Xitoy hukumati tomonidan o'rnatilgan tashqi iqtisodiy va tashqi savdo siyosatidan chiqmagan holda tashqi iqtisodiy aloqalarni hamda chet davlatlar bilan fan-texnika, madaniyat, sport va sog'liqni saqlash sohalarida ham aloqalar olib borish².

Butun Xitoy xalq vakillari kengashi ruxsati bilan avtonom hududlar o'z hududida normativ-huquqiy faoliyatni olib borishi mumkin. Lekin chiqarilgan qarorlar va buyruqlar davlat organlariga mos kelmasa hukumat uni o'zgartirishi va bekor qilish huquqiga ega³.

Avtonom hududlarning xalq vakillari kengashidagi deputatlar sonida hududda yashovchi barcha millatlarni hisobga olish hamda ularning soni bo'yicha Butun Xitoy xalq vakillar kengashiga hisob berish kerak. Xalq vakillari kengashi doimiy qo'mitasiga avtonom hududlarning aholisi soniga qarab vakillar saylanadi. Milliy

¹ Конституция КНР. 2004 г. // http://abc.vvsu.ru/books/u_state_hist/page0132.asp.html

² O'sha manba.

³ O'sha manba.

avtonom hududlarida hukumat boshqaruv lavozimlariga asosan joylardagi aholidan saylanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Markazga bo'ysunuvchi shaharlar – yuqori darajadagi (provinsiya darajasidagi) o'z-o'zini idora qiluvchi hudud hisoblanadi. Hozirgi kunda Xitoyda 4 ta markazga bo'ysunuvchi shahar mavjud: Pekin, Shanxay, Tianjin, Chunsin.

Markazga bo'ysunuvchi shaharlar Xitoy tashkil topishi bilan tashkil etilgan. Dastlab ular 12 ta bo'lgan: Anshan, Bensi, Guanchjou, Nankin, Pekin, Sian, Tianjin, Uxan, Fushun, Chunsin, Shanxay va Shenyan. 1954 yilga kelib markazga bo'ysunuvchi shaharlarning ko'pchiligi bu maqomni yo'qotdi va Pekin, Shanxay va Tianjin qoldi. 1997 yilda Chunsin shahri yana bu maqomni oldi¹.

Pekin – Xitoy poytaxti, siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaz. 850 yildan beri Xitoyning poytaxti hisoblanadi. Pekinda 16 ta tuman va 2 ta uezd mavjud. Maydoni – 16, ming km².

Shanxay – yirik markazga bo'ysunuvchi shahardan biri. Shanxayda 18 ta tuman va 1 ta uezd mavjud. Maydoni – 6340,5 km². Bu shahar Xitoyning savdo–moliyaviy markazi hisoblanadi.

Tianjin – Xitoyning shimoli-sharqiy qismida joylashgan shahar. 1928 yilda shahar maqomini olgan. Uning 15 ta tumani va 3 ta uezdi mavjud. Maydoni – 11 ming km².

Tianjin Xitoyning neft, gaz va dengiz tuziga boy bo'lgan sanoat shahri. Bu yerda mamlakatning yirik portlaridan biri joylashgan.

Chunsin – Xitoyning janubi-g'arbida joylashgan shahar. Yapon bosqinchilari bostirib kirganda shahar gomindanchilar uchun vaqtinchalik poytaxt vazifasini o'tagan. Uning 15 ta tumani, 4 uezd shahri, 17 ta uezd, 4 ta avtonom uezdi mavjud. Maydoni – 82,3 ming km². Chunsin Xitoyning turistik shaharlardan biri hisoblanadi².

Xitoy ma'muriy-hududiy tuzilishining yana bir o'ziga xosligi davlatda maxsus ma'muriy hududlarning vujudga kelganligida ko'rishimiz mumkin.

¹ Город Чунцин. Газета Женьмин-Жибао онлайн. // <http://russian.people.com.cn/31516/4847937.html>

² Китай-2013. Сборник. // Пекин.:Издательство литературы на иностранных языках, 2013 – С.57-60.

Maxsus boshqaruv hudud (xitoychada 特别行政区) – yuqori darajadagi avtonom huquqlarga ega Xitoyning maʼmuriy-hududiy birligi. Maxsus boshqaruv hududlar harbiy va tashqi siyosatdan tashqari barcha masalalarni mustaqil hal qiladi. Bu maqom konstitutsiya va qonunlarda belgilab qoʻyilgan. Maxsus boshqaruv hududlar 1980 yilda Den Syaopin tomonidan “yagona davlat – ikki tizim” konsepsiyasi asosida vujudga keldi. Bu konsepsiya eski hududlarni qaytarib olishning eng maqbul yoʻli edi. Bugungi kunda Xitoyda ikkita maxsus boshqaruv hududlar mavjud.

Gonkong (Syangan) – Xitoy janubiy-sharqiy qismida joylashgan maxsus maʼmuriy hudud. Umumiy maydoni 733 km² ni tashkil etadi. 1840 yili Afyun urushidan soʻng Gonkong Angliya tomonidan egallab olinadi. 1898 yilda Angliya Xitoydan bu hududni 99 yilga ijaraga oladi. 1997 yil iyul oyida Xitoy bu hududni qaytarib olishga muvaffaq boʻladi. Gonkong uchun qonun 1990 yil martda “yagona davlat – ikki tizim” prinsipi asosida chiqarilgan. Gonkong avtonom hudud sifatida juda koʻplab huquqlarga ega boʻldi. Xususan, oʻzining qonuni, huquqi, pul tizimi, boj va emigratsiya tizimiga ega boʻlishi hamda xalqaro tashkilotlarga aʼzo boʻlishi mumkin. Bu tizim 2047 yilgacha amal qiladi¹.

Gonkongning qonun chiqaruvchi organi bir palatali qonun chiqaruvchi kengash hisoblanib, u 4 yilga saylanadi hamda 60 ta aʼzodan iborat. Qonun chiqaruvchi organ vakolatlariga qonun va byudjetni qabul qilish, soliq siyosatini olib borish hamda ijro etuvchi organni nazorat qilish kiradi.

Gonkong hududi 18 ta maʼmuriy okrugga boʻlinadi. Gonkongda siyosiy partiyalar ham mavjud. Ular demokratik va Xitoyni yoqlovchi guruhga boʻlinadi. Ularga Liberal partiya, Gonkong progressiv alyansi, demokratik partiya, fuqarolar partiyasini misol qilib keltirish mumkin².

Gonkongning diplomatik aloqalari Xitoy hukumati tomonidan boshqarilsada, unga xalqaro tashkilotlarga aʼzo boʻlish huquqi berilgan. Xususan, Gonkong

¹ История Гонгконга // 11 июня 2014 года. // <http://www.hong-kong.ru/stories/istorija-gonkong.html>

² Hong Kong: The facts. Information Services Department, HKSAR Government Home Page address: Hong Kong Special Administrative Region Government // <http://www.gov.hk.html>

Osiyo – Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon savdo tashkiloti, Butunjahon meteorologiya tashkiloti, Butunjahon sogʻliqni saqlash tashkilotlariga aʼzo hisoblanadi.

Gonkongning alohida qurolli qoʻshini mavjud emas. Uning mudofaasi Xitoy tomonidan taʼminlanadi. Lekin ichki tartibni saqlovchi alohida politsiya kuchi mavjud. Gonkong iqtisodiy jihatdan juda yuksak rivojlangan hudud hisoblanadi. 2015 yilda yalpi ichki mahsulot 400 mlrd. dollarga yetgan. Hudud oʻzining pul tizimiga ega boʻlib, savdo gonkong dollarida amalga oshiriladi¹.

Yana bir maxsus boshqaruv hudud Makao (Aomen) hisoblanadi. Makao maxsus boshqaruv hududi 1999 yil 20 dekabrda tuzilgan. Ungacha bu hudud Portugaliya koloniyasi hisoblangan. 1557 yilda portugaliyaliklar bu hududni oʻz koloniyalariga aylantirishgan edi. Makao uchun ham qonun “yagona davlat – ikki tizim” prinsipi asosida 1993 yilda chiqarilgan. Makao ham huddi Gonkong singari avtonom huquqlarni olgan. Xususan, oʻzining qonuni, huquqi, pul tizimi, boj va emigratsiya tizimiga ega boʻlishi hamda xalqaro tashkilotlarga aʼzo boʻlishi mumkin. Makao uchun bu qonun 2049 yilgacha amal qiladi².

Makao janubiy Xitoy dengizida joylashgan boʻlib umumiy maydoni 27,2 ming km² ni tashkil qiladi.

Makaoning qonun chiqaruvchi organi bir palatali qonun chiqaruvchi kengash hisoblanib, u 4 yilga saylanadi hamda 29 ta aʼzodan iborat. Qonun chiqaruvchi organ vakolatlariga qonun va byudjetni qabul qilish, soliq siyosatini olib borish hamda ijro etuvchi organni nazorat qilish kiradi. Chiqarilgan qonunlar toʻgʻrisida Xitoy Milliy xalq kongressining doimiy qoʻmitasiga hisobot berib turadi. Gonkongdan farqli oʻlaroq Makaoda siyosiy partiyalar mavjud emas. Siyosiy masalalar Makao iqtisodiy yordam assotsatsiyasida koʻriladi³.

¹ Hong Kong: The facts. Information Services Department, HKSAR Government Home Page address: Hong Kong Special Administrative Region Government // <http://www.gov.hk.html>

² О Макао. Информационный портал о Гонгкоге и Макао. // <http://www.hong-kong.ru/o-makao.html>

³ O'sha manba.

Makao ikkita munisipalitetdan iborat. Munisipalitetlar o'z navbatida okruglarga bo'linadi. Ma'muriy markazi Aomen shahri¹.

Xitoy ma'muriy-hududiy tuzilishida Tayvan o'ziga xos maqomga ega hudud hisoblanadi. Aslida provinsiya hisoblangan Tayvanda umuman boshqa siyosiy tizimning vujudga kelganligi Xitoy davlat tuzilishining yana bir o'ziga xos jihati hisoblanadi.

Tayvan (xitoychada - 台湾) – janubiy-sharqiy Xitoy, Tayvan (Formoza) oroli va unga tegishli bo'lgan orollar (Penxuledao) hamda janubiy-sharqiy Osiyo qirg'oqlarini o'z ichiga oladi. Umumiy maydoni 35 834 km² ni tashkil qiladi. Ma'muriy markazi – Taybey shahri. Tayvanning boshqaruv uslubi prezidentlik hisoblanadi. Yuqori organlari – Milliy kengash va Qonuniy Yuan. Tayvanda bir palatali parlament tizimi shakllangan. Tayvan o'zining qonuni, huquqi, pul tizimi, boj va emigratsiya tizimiga ega hamda xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lgan².

Hozirgi kunda Xitoy Tayvanni provinsiya sifatida tan oladi. Butun Xitoy xalq vakillari kengashida tarixan Xitoyga tegishli bo'lgan Tayvandan ham vakillar kiradi. Xitoy 1949 yilgi Tayvanning ma'muriy hududiy bo'linishini tan oladi. Tayvan hukumati tomonidan o'zgartirilgan ichki ma'muriy-hududiy bo'linishlar Xitoy hukumati tomonidan legitimli emas deb hisoblaydi. Undan tashqari, Tayvan hukumatining Taybey, Gaosyun, Taychjun, Taynan, Sinbey shaharlariga bergan subprovinciya maqomini ham tan olmaydi.

Undan tashqari quyidagi hududlarni siyosiy maqomi Tayvan hukumati tomonidan berilgan:

1. Penxu oroli rasman uezd maqomida bo'lsa ham, Tayvan hukumati unga alohida maqomni bergan;
2. Fuszyan, Guandun, Xaynan orollari Tayvan orolida joylashgan bo'lsa ham, ma'muriy jihatdan ular boshqa provinsiyalarga tegishli hisoblanadi;

¹ Китай-2013. Сборник. // Пекин.:Издательство литературы на иностранных языках, 2013 – С.61-62.

² Китайская республика. // <http://ru.wikipedia.org/wiki/тайвань.html>

3. Yaponiya bilan talash hudud hisoblangan Senkaku oroli aslida Tayvanga tegishli hisoblanadi¹.

Xitoy tarkibida provinsiya maqomida bo'lsa ham unga juda ko'plab imtiyozlar berilgan. Xususan, Xalq Kengashining so'nggi qarori bo'yicha Tayvanda uch darajadagi davlat boshqaruvi vujudga kelgan:

- markaziy boshqaruv besh yuan (palata)dan iborat (Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud, ekzamenatsion va nazorat);
- provinsiya darajasidagi Tayvan va Fuzsan provinsiyalardan iborat munisipial boshqaruv;
- uezd darajasidagi boshqaruv. Tayvanda 18 ta uezd va 5 ta shahar mavjud.

Qonuniy yuan 300 deputatdan iborat. Unga siyosiy partiyalardan proporsional ravishda deputatlar saylanadi. Ijro etuvchi yuan 8 ta vazirlikdan iborat bo'lib (ichki ishlar, tahqi ishlar, milliy mudofaa, fan, adliya, iqtisod, transport va kommunikatsiya), u premyer tomonidan boshqaradi².

Xulosa qilib aytganda, Xitoyda o'ziga xos tuzilish shakli mavjud. Xitoy unitar davlat bo'lsa ham federativ davlatlarga xos bo'lgan avtonom hududlar, maxsus boshqaruv hududlar vujudga kelgan. Xitoyning federativ davlat bo'lgan taqdirda, uning avtonom hududlari sesessiya huquqini talab qilgan holda uning tarkibidan chiqib ketishga harakat qilardi. Albatta bu Xitoyning hududiy yahlitligi va bo'linmasligiga juda salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Shuning uchun ham Xitoy unitar shaklda qolgan.

¹ Гудошников Л.М., Кокарев К.А. Политическая система Тайваня. М., 1997. С. 8 – 12.

² Гудошников Л.М., Кокарев К.А. Политическая система Тайваня. М., 1997. – С. 8 -12 .

2–bob. XITOIY ICHKI VA TASHQI SIYOSATIDA TAYVAN MASALASI

2.1. Tayvan masalasining kelib chiqish tarixi.

Hozirgi vaqtda xalqaro munosabatlarda Tayvan masalasi nafaqat Osiyo hududida, balki butun jahonda eng koʻp muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. Bu masalaning hozirgi kundagi haqiqiy holatini aks ettirish uchun uning kelib chiqish tarixiga murojaat qilish kerak.

Tayvan Xitoyning eng katta oroli hisoblanadi. Bu orol qadimdan Xitoyga tegishli boʻlgan. Qadimda Tayvan oroli “Ichjou” yoki “Lyusyu” deb atalgan. Milodiy III va VII asrlarda Suy sulolasi Tayvan oroliga 10 ming kishilik aholini koʻchirib joylashtiradi. XVII asrdan boshlab Xitoydan koʻplab kishilar koʻchib kela boshlashdi. XVII asr oxirida Tayvanga Xitoydan koʻchib kelganlar soni 100 ming kishiga yetdi. 1893 yilga kelib esa Sin sulolasi davrida koʻchib kelganlar soni 2 million kishidan ortib ketdi. Yaʼni 200 yil ichida aholi soni 25 martaga oshgan¹.

Xitoydan dastlab koʻchib kelgan kishilar Tayvanga oʻzlari bilan birga ilgʻor ishab chiqarish uskunalarini olib kirishgan. Bu tarixiy dalilning oʻzi Tayvanning huddi Xitoyning boshqa provinsiyalari kabi xitoyliklar tomonidan oʻzlashtirilganligini bildiradi.

Xitoy markaziy hukumati tomonidan oʻrta asrlardayoq Tayvanda maʼmuriy boshqaruv organlari tuzilgan. Sun sulolasi davrida XII asr oʻrtalaridayoq Tayvanga harbiy qoʻshin joʻnatilib, uni Fuzyan provinsiyasi tarkibiga kiritilgan. Yuan sulolasi davrida orolda “patrul-nazorat xizmati” tashkil etilgan. Min sulolasi

¹ Тайваньский вопрос и объединение Китая. // <http://by.china-embassy.org/rus/zt/zgtw/t265038.html>

Tayvanni dushmanlardan himoya qilish uchun harbiy qismlar sonini koʻpaytirdi. 1662 yili general Chjen Chengun Tayvanda “Chentyanfu” viloyatiga asos soldi. Sin sulolasining markaziy hukumati Tayvanda maʼmuriy boshqaruv organlarini sekin-asta kuchaytirib va kengaytirib bordi. 1714 yilda Sin hukumati Tayvanga orolning umumiy maydonini oʻlchash va uni xaritaga tushirish uchun mutaxassislarni joʻnatadi. 1727 yili orolga rasmiy jihatdan “Tayvan” nomi berildi hamda “Tayvan okrugi boʻyicha ishlar” boshqaruv organi tuzildi. 1875 yilda Sin hukumati tomonidan Tayvan ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida “Taybey viloyati” hamda Danshuy, Sinchju, Ilan uyezdlari tuzildi. 1885 yilda Tayvanga alohida provinsiya maqomi berildi hamda uning birinchi gubernatori etib Lyu Minchun tayinlandi. Oʻsha paytda provinsiya tarkibida 3 ta okrug va 11 ta uyezd mavjud boʻlgan. Lyu Minchun davrida Tayvanda koʻp ishlar amalga oshirildi: temiryoʻllar qurildi, telegraf liniyalari oʻtkazildi, yangi usuldagi maktablar qurildi va boshqalar¹.

Chet ellik bosqinchilar Tayvanni oʻrta asrlardan boshlaboq egallab olishga urinishgan. Xitoyliklar esa ularga qarshi uzoq vaqt kurashishga majbur boʻlganlar. Tayvan oroliga birinchi marta XVI asrda portugallar kelishgan. Aynan portugallar oroliga Formoza (“Ilha Formosa” portugaldan tarjima qilinganda “chiroyli orol” maʼnosini beradi) nomini berishadi. Ammo portugallar bu yerda oʻz koloniyalarini tuza olishmaydi. 1624 yilda golland mustamlakachilari Tayvanning janubiy qismini egallab olishdi. 1642 yilda ispanlar orolning shimoliy qismini egallashdi. 1662 yilda Min sulolasining sodiq kishisi boʻlgan Ko Sing mustamlakachilarni yengadi va bu yerda oʻz hukmronligini oʻrnatadi. Bundan foydalangan Sin hukumati esa uning qoʻshinlarini yengadi va Tayvan Sin imperiyasiga qoʻshib olinadi.

¹ Тайваньский вопрос и объединение Китая: Канцелярия по Тайваньским делам канцелярия по делам печати при Государственном совете КНР август 1993 года // <http://by.china embassy.org/rus/zt/zgtw/t265038.html>

Tayvanni egallagan Sin hukumati unga darhol, provinsiya maqomini bermagan. Bu hudud Fuzyan provinsiyasi tarkibiga kiritilgan. Faqatgina 1885 yilda Tayvanga alohida provinsiya maqomi berilgan¹.

Keyinchalik bu hududni yaponlar bosib olishga harakat qilishdi. 1894 yilda Yaponiya Xitoyga qarshi urush boshladi. Urushda magʻlub boʻlgan Sin sulolasi sharmandali “Simonoseki shartnoma”sini imzolaydi. Bu shartnomaga koʻra Tayvan va Penxu orolini Yaponiyaga berishga majbur boʻladi. Tayvan aholisiga markaziy hukumatning hudud taqdiriga beparvo qarashi yoqmagani. Natijada Tayvanda general Lyu Yunfu boshchiligida yapon boshqinchilarga qarshi kurash olib borildi. Bu kurash 7 yil davom etsada maʼlum bir natijaga erisha olishmadi. Yaponiya Tayvanning keyinchalik rivojlanib ketishiga katta taʼsir oʻtkazgan. 1937 yildan boshlab butun Xitoyda yaponlarga qarshi yalpi urush boshlandi. 1941 yilda Xitoy hukumati “Yaponiyaga qarshi urush eʼlon qilish deklaratsiyasini” eʼlon qildi. Bu deklaratsiyaga koʻra Xitoy–Yaponiya munosabatlariga tegishli barcha shartnomalar, konvensiyalar, kelishuvlar va sulhlar shu jumladan “Simonoseki shartnomasi” ham bekor qilindi. Yaponiya Tayvanni Xitoyga qaytarib berishga majburligi belgilab qoʻyilgan edi. 8 yil davom etgan antiyapon urushida Xitoy xalqi qiyinchilik bilan boʻlsada gʻalaba qozondi. 1945 yilda Xitoy Tayvanni Yaponiyadan qaytarib olishga erishdi. Xitoyning antiyapon kurashi boshqa davlatlar tomonidan ham qoʻllab-quvvatlandi. Xususan ikkinchi jahon urushi davrida 1943 yilda Xitoy, AQSh va Buyuk Britaniya oʻrtasida Qohira deklaratsiyasi imzolangan. Unga koʻra, Yaponiya egallab olgan barcha orollarni qaytarib berishi lozim edi. Xususan, Yaponiya Xitoyga Manjuriya, Tayvan (Formoza oroli) va Peskador orolini qaytarib berish kerak edi. 1945 yil 26 iyulda imzolangan “Postdam konferensiyasi” shartnomasiga koʻra (keyinchalik bunga Sobiq Ittifoq ham qoʻshilgan edi) Qohira deklaratsiyaning talablari bajarilishi yana bir bor taʼkidlab oʻtildi. Yaponiya 1945 yil 15 avgustda

¹ Принцип одного Китая и Тайванский вопрос: Материалы пресс-канцелярии Госсовета КНР // <http://russian.china.org.cn/russian/32987.html>

kapitulatsiya eʼlon qildi va Potsdam konferensiyasi qarorlarini bajarishga rozi boʻldi. Unga koʻra rasman Yaponiya Tayvan orolini Xitoyga qaytarib berdi¹.

Ikkinchi jahon urushidan soʻng Tayvan de-yure va de-fakto Xitoyga qaytarib berilgan edi. Tayvan muammosining kelib chiqishiga esa Xitoyda boʻlib oʻtgan fuqarolar urushi va unga AQShning aralushuvi sabab boʻlgan edi. 1949 yil 1 oktabrda rasman Xitoy Respublikasi oʻrniga Xitoy Xalq Respublikasi tuzilganligi eʼlon qilindi. Xitoy oʻzining markaziy hukumatini tuzgani munosabati bilan dunyoga quyidagini eʼlon qildi: “Hozirgi hukumat yagona qonuniy hukumat hisoblanib, Xitoydagi barcha xalqlarni aks ettiradi. Hozirgi hukumat xohlagan davlat bilan diplomatik aloqalar oʻrnatishga tayyor – faqat bitta shart bilan. Agarda u tenglikka qatʼiy rioya qilsa, oʻzaro manfaat va oʻzaro hududiy mustaqilligini hurmat qilib, boshqa tamoyillarga amal qilsa”².

1945–1949 yilda Gomindan hukumati³ va kommunistlar oʻrtasida fuqarolar urushi boʻlib oʻtadi. 1946 yil Chan Kay Shi boshliq gomindanchilar Xitoy Milliy ozodlik armiyasi (MOA) tomonidan ozod qilingan shaharlarga hujum qilishadi. Ular 100 ta shaharni egallab olishadi. Bu vaqtinchalik gʻalaba edi. MOA 1946 iyuldan gomindanchilarga qarshi kurashni boshladi. Gomindanchilar egallagan hududlarni qoʻldan boy bera boshlashdi. Natijada Chan Kay Shi AQShdan yordam soʻrashga majbur boʻldi. Chan Kay Shining bu ishi mamlakat aholisiga yoqmadi va 1947 yilda antiamerika harakatlari boshlandi. Chan Kay Shiga qarshi partizanlar harakati ham boshlanib ketdi. 1948–1949 yillarda Milliy ozodlik armiyasi gomindanchilarning armiyasiga qattiq zarba beradi. Gomindanchilar barcha egallagan shahardan mahrum boʻlishdi⁴.

Chan Kay Shi boshchiligida gomindanchilar Tayvan oroliga qochadi. 1949 yil dekabrdayoq Gomindan hukumati barcha boshqaruv organlarini Tayvanga koʻchirish toʻgʻrisida qaror chiqaradi. Oʻsha vaqtda Xitoy Xalq Respublikasi

¹ Принцип одного Китая и Тайванский вопрос: Материалы пресс-канцелярии Госсовета КНР // <http://russian.china.org.cn/russian/32987.html>

² Qarang: Шазаманов Ш.И. Ислухотлар даврида Хитой Халқ Республикаси // Монография. – Т.:ТДШИ, 2014. – Б.117.

³ Gomindan (xit.中国国民党- Xitoy Milliy partiyasi) 1912-yil 25-avgustda Xitoy Respublikasi asoschisi va uning birinchi prezidenti Sun Yat Sen tomonidan tuzilgan.

⁴ Новейшая история китая 1917-1970 / Под.рд. Г.В. Астафев, В.Н.Никифоров. – М., 1990. – С.226-228

hukumatidan norozi boʻlgan aholi, ilm-fan va madaniyat arboblari Tayvanga koʻchib ketishdi. Oʻsha yili Tayvanga 2 mln.ga yaqin kishi koʻchib borgan edi¹.

Chan Kay Shi 1949 yil mayda Tayvanga yetib keladi. Shu yil iyunda gomindan armiyasini tuzadi. Taybey shahrini vaqtinchalik poytaxt deb eʼlon qildi. Chan Kay Shining oʻsha vaqtdagi holati doim xavf ostida turar edi. Ertami-kechmi Xitoy Milliy ozodlik armiyasi orolni ozod qilish uchun bostirib kirardi. Shuning uchun u diplomatik va harbiy yordam olish uchun Koreyaga va Fillippinga tashrif buyurdi. Natijada u “Uzoq sharq antikommunistik alyans” ni tuzishga muvaffaq boʻladi².

Xitoy Xalq Respublikasining Milliy ozodlik armiyasi qitʼani ozod qilgandan soʻng Tayvan oroliga harbiylarni joʻnatishga tayyorgarlik koʻrdi. Oʻsha paytda AQSh prezidenti boʻlgan G.Trumen Xitoyni tan olmadi, lekin Xitoyning ichki ishlariga ham aralashmasligini eʼlon qildi. Tayvan muammosi hal boʻlganga oʻxshardi ammo 1950 yilda boshlangan Koreya urushi xalqaro vaziyatni oʻzgartirib yubordi³.

1950 yil 27 iyunda prezident Trumen Tayvanni Xitoy hujumiga qarshi 7-flotini joʻnatadi. Undan tashqari Gomindan hukumatiga iqtisodiy yordam koʻrsatadi. Aynan shu voqea Tayvan muammosini vujudga kelishiga eng katta sabablardan biri boʻldi. Gomindanchilar Tayvanda amerika himoyasi ostida oʻz hukumatlarini shakllantirdilar. Chan Kay Shi boshchiligida Gomindan hukumati Tayvanda iloji boricha tezroq oʻz hukumatini shakllantirishga kirishdi. Shundan boshlab Tayvan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jihatdan Xitoy qitʼasidan ajrala boshladi⁴.

Gomindan hukumatining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga AQSh katta taʼsir oʻtkazgan. Tayvanda Gomindan tuzumini saqlab qolish uchun AQSh bu yerda harbiy baza quradi. Ayni vaqtda harbiy-byuroktatik tuzum oʻrniga burjuademokratik tuzum oʻrnatishga harakat qilindi. Gomindan hukumati tezda xususiy

¹ Тайвань: Проблемы развития: Материалы научно практический конференции. – М., 1990. – С.109

² Цветков.И.А. Формирование тайваньской проблемы и политика США. Диссертация. // <http://www.usinfo.ru/c1.files/cvetkov.html>

³ Цыганов Ю. Тайвань в структуре безопасности Восточной Азии. – М., 1998. – С.46

⁴ Новейшая история Китая 1917-1970 / Под.рд. Г.В. Астафев, В.Н.Никифоров. – М., 1990. – С.230-231

tadbirkorlikni shakllantirishga harakat qildi. Ammo buni amalga oshirish juda qiyin kechdi. Chunki, Gomindan hukumatining iqtisodiy tuzilishi Sun Yat Sen davridagi Xitoy iqtisodidan deyarli farq qilmasdi. Banklar, tashqi savdo, katta ishlab chiqarish korxonalarining barchasi gomindanchi yirik amaldorlar qoʻlida edi. Chet el investitsiyasi yoʻq edi. Gomindan hukumati dastlab barcha infrastruktura ustidan davlat nazorati oʻrnatishdi va asta-sekin xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga harakat qilishdi. Ammo faqatgina ijtimoiy hayot struktura bilan maʼlum bir natijalarga erishish yetarli emas edi. Shuning uchun Gomindan humumati asta-sekin davlat mulkini asta-sekin xususiylashtirishga kirishdi¹.

Xitoyning ikki qismida ikki siyosiy tizim oʻzicha rivojlanishda davom etdi. Materik Xitoyda XX asr 50–70-yillarda Xitoy kommunistik partiyasi (XKP) mamlakatda oʻziga xos kommunizmni yaratishga harakat qildi. XKP tomonidan huddi Sobiq Ittifoq kabi jamoa xoʻjaliklari tuzildi, barcha mulklar davlatga oʻtkazildi, partiya qarshi boruvchilar esa repressiya qilindi. Partiya tomonidan olib borilgan keskin siyosat millionlab kishilarning hayotiga zomin boʻlishiga sabab boʻldi. Ayniqsa 1966–1976 yillarda olib borilgan “madaniy inqilob” partiyaning eng katta xatolaridan biri boʻldi².

XX asr 70 yillarida materik Xitoyda olib borilgan notoʻgʻri siyosat natijasida mamlakat qoloq agrar davlatligicha qoldi. Xitoy davlatni birlashtirdi, oʻz mustaqilligini himoya qildi, ammo modernizatsiyadan orqada qolib ketdi. Xitoyda olib borilgan oʻttiz yillik kommunistik siyosat samarasiz boʻlib chiqdi.

Tayvan esa Gomindan hukumati tomonidan olib borilgan islohotlar natijasida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tezlik bilan rivojlana boshladi. Avtoritar hukumat saqlanib qolganiga qaramasdan, Tayvan modernizatsiya yoʻlidan borar edi. XX asrning 80 yillariga kelib Tayvan iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarga yetib oldi. Xususan oʻsha yilga kelib yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga 2 ming dollarga yetdi. Bu esa materik Xitoydan deyarli 10 baravarga koʻp edi.

¹ Новое изучение Китая: Сб.стю. / Под ред. М.А. Титаренко. – М., 1990. – С. 25-26.

² Меликсетов. А.В. Победа китайской революции 1945-1949. – М., 1989. – С.172.

Tayvanning yalpi ichki mahsulot yiliga 6-7 %ga oʻsar edi. Hozirgi kunga kelib Tayvan yuqori texnologiyalar ishlab chiqaruvchi hududga aylangan hamda xalqaro savdoda muhim oʻrin tutadi¹.

Den Syaopin davridan boshlangan islohotlar natijasida Xitoy shiddat bilan rivojlana boshladi. XX asr 80 yillardan boshlangan islohotlardan soʻng atigi 20 yili ichida Xitoy juda katta yutuqlarga erishdi. Xitoyning iqtisodiy jihatdan oʻsishi uning ichki muammolarini, jumladan Tayvan muammosini ham hal qilishga imkon yaratdi. Chunki, iqtisodiy jihatdan qudratli boʻlgan davlat oʻzining ichki muammolarini hal qilishida muhim rol oʻynaydi. Xitoyning bu olib borayotgan “ikkiyoqlama” tizimi oʻzida sotsializm va kapitalizm elementlarini oʻzida jamlagan edi.

Xitoy iqtisodiy jihatdan islohotlar oʻtkazgan boʻlsada, siyosiy sohada tub demokratik islohotlarni amalga oshirishi ancha qiyin kechadi. Chunki XKPning jamiyat hayotida boshqaruv va nazorat funksiyasi anchagina mustahkam. Xitoyda boshqa partiyalar mavjud boʻlsada ular, XKPga oppozitsiya boʻla olmaydi. Shuning uchun Xitoy hukumati hozirgi kunda asosan iqtisodiy islohotlarga urgʻu bermoqda. Siyosiy islohotlar iqtisodiy islohotlar bilan birga olib borilmayapti.

Xitoy hukumati faqatgina iqtisodiy islohotlar bilan Xitoy jamiyati yaxlitligini saqlab qola olmasligi juda yahshi tushunadi. Xitoyning hamma qismi ham bir hilda rivojlanmagan. Ayrim provinsiyalarda ijtimoiy ahvol juda ham ogʻir edi. Undan tashqari fuqarolar urushidan soʻng paydo boʻlgan Tibet, Tayvan muammolari, Uygʻurdagi separatistik harakatlar siyosiy sohada islohotlar oʻtkazish kerakligini taqozo qiladi. Shuni hisobga olgan holda Xitoy hukumati plyuralistik siyosiy tuzumni asta-sekinlik bilan tashkil qilishga harakat qilmoqda. Misol uchun, mamlakatda demokratik partiya tashkil etilgan. Bu demokratik partiyaning hali taʼsiri kuchli boʻlmasada u kelajakda koʻppartiyaviy tizim oʻrnatilishida

¹ Галенович. Ю.М. Тайвань отрезанный ломоть Китая? // <http://www.iass.msu.ru/html>

muhim rol oʻynaydi. Undan tashqari XKPning ichida ham turli fikrga ega aʼzolar vujudga kelmoqda¹.

Xitoyda boʻlib oʻtgan islohotlar Tayvanda ancha oldin boshlangan edi va haligacha davom etmoqda. Xususan 1986 yilda Tayvanda “Harbiy holat toʻgʻrisida qonun” bekor qilingandan soʻng demokratik siyosiy tizim tashkil etila boshlandi. 1989 yilda Tayvanda koʻppartiyaviy tizim asosida saylovlar boʻlib oʻtdi. Bu saylovda birinchi marta Gomindan hukumatiga oppozitsiya sifatida Demokratik taraqqiyot partiyasi kurash olib bordi. Demokratik taraqqiyot partiyasi demokratiya va mustaqillik uchun kurashadi. 1994 yilda Gomindandan ajralib chiqib yangi partiya tashkil topdi. Tayvanda boʻlib oʻtayotgan siyosiy islohotlar bu muammoni yanada chigallashuviga olib kelmoqda².

1949 yil va 1979 yillar oraligʻida Xitoy Tayvan muammosini hal qilishda asosan harbiy kuchdan foydalandi. Ammo bu oʻz natijasini bermadi. Shuning uchun Xitoy hukumati 1979 yildan boshlab muammoni tinch yoʻl bilan hal qilishga kirishdi.

1945 yil Mao Sze Dun sovet elchisi A.A Petrovga Chan Kay Shi va uning siyosati toʻgʻrisidagi savolga quyidagicha javob bergan edi: Chan Kay Shining aniq bir oldiga qoʻygan siyosiy maqsadi mavjud emas. Chan Kay Shining oʻzi qaysi yoʻldan (diktatura yoki demokratiya) borishni bilmaydi. Tashqi siyosatda ham kimga ergashishni hal qilmagan. U Sobiq Ittifoq kuchidan xavfsirab toʻlaligicha AQSh tomon ergasha olmaydi³.

Xitoy Xalq Respublikasining birinchi rahbari Mao Szedun uchun Tayvan muammosini hal qilish inqilobning tugatilishi edi. Tayvan hukumati esa Xitoy Xalq Respublikasi eʼlon qilingandan soʻng 30–40yil mobaynida uni tan olmay keldi. 1958 yilda Mao Sze Dun Tayvan hukumatiga qarata “Dunyoda faqat yagona Xitoy mavjud, ikkita emas” ligini taʼkidlab oʻtdi⁴.

¹ Егоров К.А. Китайская Народная Республика: Политическая система и политическая динамика. – М., 1993. – С.109

² Гудошников Л.М., Кокарев К.А. Политическая система Тайваня. – М., 1997. – С. 91

³ Закулиса мигражданской войны в Китае. Военная Литература // <http://militera.lib.ru/h/lavrenov/popov.html>

⁴ Принцип одного Китая и Тайванский вопрос: Материалы пресс-канцелярии Госсовета КНР // <http://russian.china.org.cn/russian/32987.html>

Xitoyning Tayvanni o'z tarkibiga qaytarib olish uchun harakat qilishi ular o'rtasida harbiy to'qnashuvlar bo'lishiga olib keldi. Xitoy hukumati o'zining harbiy qurolli kuchi hisoblangan Milliy ozodlik armiyasi (MOA) yordamida Tayvanni ozod qilish va uni materik Xitoyga qaytarish uchun harakat qildi. Xitoy Milliy ozodlik armiyasi hududlarni ozod qilishda juda katta tajriba to'plagan edi. Shuning uchun 1950 yildan boshlab MOA Tayvanni ozod qilish va qaytarish uchun harakat boshladi. Chan Kay Shi bunga qarshi Amerikadan harbiy yordam so'rab murojaat qildi. AQSh hukumati yordam evaziga Chan Kay Shiga Koreya urushida Gomindan armiyasi bilan yordam berish shartini qo'ydi. Koreya urushi oqibatida Xitoyning Tayvanni ozod qilishga bo'lgan birinchi urinishi muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Koreya urushidan so'ng MOA Tayvanni ozod qilish uchun yana harakat qildi. 1954 yil 3 sentabrda Szinmen orolida artilleriyadan o'qqa tutish boshlandi. Bu Tayvan orolidagi "birinchi inqiroz" edi. 1955 yilda MOA orolni ozod qilishga erishdi. Ammo MOA oldida bir necha muammolar paydo bo'ldi. Muammo Gomindan armiyasini yo'qotish emas, balki AQSh harbiy-dengiz kuchlariga qarshi kurashish turardi. 1954 yilda AQSh Tayvan bilan "O'zaro xavfsizlik to'g'risida shartnoma" imzolagan edi. Xitoy hukumati dunyoda faqat yagona Xitoy mavjudligini hamda Tayvan uning ajralmas qismi ekanligini ma'lum qildi¹.

AQShning Tayvan muammosiga aralashuvi Xitoy hukumati uchun bu orolni ozod qilish rejasini ancha chigallashtirib yubordi. AQShning maqsadi Gomindan hukumatini qo'llab-quvvatlash va Xitoyni bo'lib yuborish edi. Buni anglab yetgan Xitoy hukumati Tayvanni tinch yo'l bilan qo'shib olish rejasini ishlab chiqishni boshladi. 1955 yilda Xitoy davlat kengashi raisi Chjou Enlay Butun Xitoy xalq vakillari kengashida buni rasman e'lon qildi. U Tayvan muammosini hal qilishning ikkita yo'li ya'ni harbiy yoki tinch yo'l bilan hal bo'lishini ma'lum qildi. Kengashda albatta muammoni tinch yo'l bilan hal qilish yo'li tanlandi. Ammo Chan Kay Shi Pekin tomonidan ilgari surilgan taklifga rozi

¹ Кулик Б. США и Тайвань против КНР. – М., 1995. – С. 19.

boʻlmadi. Natijada 1958–1972 yillar oraligʻida Xitoy va Tayvan oʻrtasida qarama-qarshilik davom etib turdi, ammo jiddiy toʻqnashuvlar yuz bermadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Tayvan muammosini kelib chiqishiga ikki qarama-qarshi tizimning kurashi (kapitalizm va kommunizm), ularning har biri Xitoyni boshqarishga daʼvo qilishga intilishi; yengilgan kapitalizm tizimining Tayvan oroliga koʻchib oʻtishi; AQShning Xitoyning ichki ishlariga aralashuvi sabab boʻlgan. Ammo Tayvan muammosini vujudga kelishida qisman Xitoyning ham aybi bor. Misol uchun, “Simonoseki sulhi”ga koʻra Yaponiyaga Tayvan orolini berib yuborishga rozi boʻlishi hududning taqdiriga beparvo boʻlganligini bildiradi. Yaponlar Tayvanni Xitoyga qaytarib bergan boʻlsalar ham, hududning ijtimoiy–iqtisodiy hayotida juda katta taʼsir oʻtkazishgan. Ayniqsa, Tayvanning iqtisodiy rivojlanishida Yaponiyaning taʼsirini bilish mumkin. Keyinchalik Xitoy Xalq Respublikasi tuzilganda ham hukumat gomindanchilarga qarshi oxirgacha kurashmadi. Bu esa hududda gomindanchilar hukumati oʻrnatilishiga sabab boʻldi. Undan tashqari Tayvan muammosi ikkinchi jahon urushidan soʻng oʻz taʼsir doiralarini kengaytirish uchun harakat qilgan AQSh va Sobiq Ittifoqning oʻzaro kurashi natijasida vujudga keldi.

2.2. Tayvan masalasida AQSh va Yaponiya omili

Tayvan masalasi vujudga kelishda tashqi omil alohida ahamiyatga ega. Ayni vaqtda, aynan shu omil Tayvan masalasini vujudga kelishiga sabab boʻldi. Tayvan Osiyo-Tinch okeani hududidagi juda muhim strategik hudud hisoblanadi. Shuning uchun Tayvan masalasiga davlatlar oʻz manfaatidan kelib chiqqan holda oʻz munosabatini bildirmoqda. Bu masalada ayniqsa AQSh va Yaponiya omili asosiy oʻrin egallaydi.

AQSh Tayvan muammosini hal qilinishida muhim oʻrin tutadi. Aynan AQShning Xitoy ichki ishlariga aralashishi oqibatida bu muammo vujudga keldi. Oʻsha paytda Amerika hukumatining Tayvan muammosini keltirib

chiqarishishiga Osiyo–Tinch okeani hududini nazorat qilib turish, kommunizmning oldini olish va o'z ta'sir doirasini kengaytirish kabilar sabab bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida Tayvan masalasi ko'rib chiqila boshlandi. Qohira konferensiyasida AQSh president Ruzvelt urushdan so'ng Yaponiyaning Xitoyga tegishli barcha bosib olgan yerlarini, jumladan Tayvanni qaytarib berish kerakligini qo'llab quvvatladi. U Xitoyda Chan Kay Shi hukumatini o'rnatilishidan manfaatdor edi. Ammo vaziyat Ruzvelt kutgandek chiqmadi. Chunki Mao Sze Dun boshchiligida kommunistlar Xitoyda o'z hukumatlarini o'rnatishga muvaffaq bo'ldilar. AQSh Xitoyda yengilganiga chiday olmasdan Tayvanni undan ajralib qolishi uchun harakat qildi.

AQSh harbiylari 1945 yilda Tayvan orolini blokada qilishdi. 1945 yil 40 avgustda esa gomindanchilar Tayvan Xitoy Respublikasi tarkibiga kirganligini va bu yerda alohida hukumat tuzganliklarini e'lon qilishdi. AQSh prezidenti G. Trumen Tayvanda 1945 yilda harbiy baza qurishga buyruq berdi¹.

G. Trumen Xitoyni tan olmadi. Ayni vaqtda G. Trumen Xitoyning ichki ishlariga aralashmasligini ma'lum qildi. Ammo Koreya yarim orolida boshlangan urush vaziyatni o'zgartirib yubordi. Koreya urushiga Xitoyning aralashgani uchun AQSh bunga javoban 1950 yilda Tayvanga 7-flotini jo'natadi. 1954 yil dekabrda AQSh Tayvan bilan "O'zaro himoya kelishuvi" shartnomasini imzolashdi. Bu esa Tayvanni to'liq ravishda AQSh "himoyasi"ga o'tganini bildirardi. Shundan so'ng Xitoy va AQSh o'rtasida Tayvan asosiy muammolardan biriga aylandi. Tayvan muammosini hal qilish maqsadida AQSh va Xitoy o'rtasida muzokaralar boshlandi. Bu muzokaralar 1955 yildan 1970 yilgacha davom etdi. Shu vaqt ichida Xitoy va AQSh o'rtasida 136 raunddan iborat muzokaralar bo'lib o'tdi, ammo biror-bir natijaga erishilmadi².

XX asrning 60–70 yillariga kelib AQSh Xitoyga nisbatan siyosatini o'zgartira boshladi va o'zaro muammolarni hal qilishga kirishdi. 1971 yil

¹ Kerry Dumbaugh. Taiwan's Political Status: Historical Background and Ongoing Implications. Washington DC: Congressional Research Service. 2009 – P.1.

² Тайванский вопрос и объединение Китая. Канцелярия по Тайванским делам по делам при Государственном совете КНР, август 1993 // <http://by.china-embassy.org.html>

oktabrda BMT Bosh Assambleyasining 26-sessiyasida 2758-sonli qarori chiqdi. Unga ko'ra, Xitoyning barcha huquqlari tiklandi hamda tashkilotdan Tayvan hukumati vakillari ro'yxatdan chiqarildi¹.

Shundan so'ng AQSh va Xitoy o'rtasida ham yaqinlashish boshlandi. 1971 yil AQSh-Xitoy o'rtasidagi aloqalar tiklana boshladi. 1971 yil iyulda tashqi siyosiy ishlar bo'yicha maslahatchi bo'lgan G.Kissinjer Xitoyga tashrif buyurdi. 1972 yilda esa yana bir maslahatchi A.M Xey Xitoyga tashrif buyurdi. 1972 yil fevralda R.Niksonning o'zi Xitoyga tashrif buyurdi va Mao Sze Dun bilan uchrashdi. Bu tashrifdan so'ng AQSh va Xitoy o'rtasida Shanxay kommunikasi imzolandi. Unga ko'ra: "Amerika hukumati shuni ma'lum qiladiki, AQSh hukumati Tayvan bo'lganining ikki qismida yashovchi xitoyliklarning faqat yagona Xitoy mavjudligini hamda Tayvan uning bir qismi deb hisoblashini tan oladi. AQSh hukumati bunga qarshilik ko'rsatmaydi" deb belgilab qo'yilgan edi².

1978 yil dekabrda Xitoy hukumati u bilan diplomatik aloqalar o'rnatish maqsadida bo'lgan AQSh hukumatiga uch tamoyil asosidagi shartlarini qo'ydi. Unga ko'ra AQSh hukumati Tayvan bilan diplomatik aloqalarni uzishi, "o'zaro himoya kelishuvi" shartnomasini bekor qilishi va harbiylarni Tayvandan olib chiqib ketishi kerak edi. AQSh bu shartni qabul qildi va natijada 1979 yil 1 yanvarda AQSh va Xitoy o'rtasida rasman diplomatik aloqalar o'rnatildi. Xitoy va AQSh o'rtasida imzolangan diplomatik munosabatlar kommunikasiida shu haqida so'z yuritiladi: "Amerika Qo'shma Shtatlari Xitoy Xalq Respublikasini qonuniy hukumat ekanligini tan oladi... Amerika Qo'shma Shtatlari hukumati faqat yagona Xitoy mavjudligini hamda Tayvan uning bir qismi ekanligini tan oladi³".

Ammo 1979 yildayoq AQSh Xitoy bilan shartnoma imzolanganidan so'ng uch oy ham o'tmasdan "Tayvan bilan o'zaro aloqalar to'g'risida akt" ni

2. Резолюция Совета Безопасности ООН 2758 //

<https://documentsdssny.un.org/doc/RESOLUTION/GEN/NR0/327/74/IMG/NR032774.pdf?OpenElement.html>

² Тайванский вопрос и объединение Китая. Канцелярия по Тайванским делам по делам при

Государственном совете КНР, август 1993// <http://by.china-embassy.org.html>

³ Qarang: Шазаманов Ш.И. Ислохотлар даврида Хитой Халқ Республикаси // Монография. Т.:ТДШИ,-2014 – Б.118.

imzolaydi. Bu aktni AQSh Xitoy bilan imzolangan kommunikatsiya tarkibiga kiritgan. Bu jihatdan AQSh “ikki tomonlama siyosat” (“dual track”) olib bordi. AQSh uchun qirgʻoqning ikki qismida urush boʻlmasligi va status-kvo holati saqlanib qolinishidan manfaatdor edi. Bu esa diplomatik munosabatlarni yana sovuqlashishiga olib keldi. Bu akt boʻyicha AQSh hukumati yana Tayvanga qurol sotishda davom etishi koʻzda tutilgan¹.

1982 yilda Xitoy AQSh bilan Tayvanga qurol sotishni toʻxtatish masalalarini hal qilishga kirishdi. 1982 yil 17 avgustda AQSh va Xitoy oʻrtasida uchinchi kommunikatsiya imzolandi. Bu kommunikatsiyada AQSh Tayvanga uzoq vaqt davomida qurol sotish siyosatini oʻtkazishga harakat qilmasligini, undan tashqari AQSh Tayvanga qurol miqdorini oshirmasligini hamda unga qurol sotishni sekin-asta kamaytirishni tasdiqladi. Ammo AQSh bu kommunikatsiyaning shartlarini hammasini ham bajarmadi. Xususan 1992 yilda AQSh Tayvanga F-16 turidagi qiruvchi qurolni sotish toʻgʻrisida qaror chiqargan. Bu esa AQSh va Xitoy oʻrtasidagi munosabatlarga salbiy taʼsir oʻtkazardi².

“Sovuq urush” tugagandan soʻng AQSh yagona liderga aylandi. Shuning uchun u oʻzining raqobatchilarni yoʻqotishga harakat qilardi. Xitoy esa uning asosiy raqobatchilardan biri edi. AQShning Xitoyga qarshi kurashishida Tayvan “yashirin qurol” vazifasini oʻtardi. AQShning Tayvanga 150 F-16 qurolini joʻnatishi (1992 y.), Li Den Xueyning Kornell universitetiga tashrifi (1995 y.), Prezident Klintonning “uchta yoʻq” nazariyasi (1998 y.), Li Den Xueyning “ikki davlat nazariyasi”ni ilgari surishi (1999 y) kabilar Tayvan masalasining yana qayta kuchayishiga sabab boʻldi³.

Prezident Bill Klinton “bitta Xitoy – bitta Tayvan” konsepsiyasini taqdim qildi. Bu AQSH hukumati tomonidan ishlab chiqilgan juda “ayyorona” konsepsiya edi. AQSh bir tomondan muammoni hal qilganday materik Xitoy bilan aloqalarni

¹ 林冈 台湾问题: 美国对华政策中的两难议题(Li Tang. Tayvan masalasi: Xitoy-AQSh munosabatlardagi dilemma)//上海交通大学 国际与公共事务学院-2010. – 46 页

² Тайванский вопрос и объединение Китая. Канцелярия по Тайванским делам по делам при Государственном совете КНР, август 1993. // <http://by.china-embassy.org.html>

³ Yuan Peng. The Taiwan Issue in the Context of New Sino – U.S. Strategic cooperation// The Brookings institution. Center for Northeast Asian Policy Studies. 2004. -P.7

rivojlantiradi, ikkinchi tomondan “yashirin” tarzda Tayvan bilan aloqalarni uzmaslikka harakat qilardi. Klintonning Xitoyga tashrifidan soʻng Tayvan hukumati oʻzining pozitsiyasini bildirishi kerak edi. 1998 yilda Xitoy hukumati Tayvan bilan oʻzaro muzokaralar olib borishga tayyorgarlik koʻrdi. Ayni vaqtda Tayvan rahbari Li Den Xuey tomonidan ilgari surilgan “ikki davlat nazariyasi” AQSh tomonidan qoʻllab-quvvatlanmadi. Chunki, AQSh hukumati Tayvan hududida yana Xitoy bilan mojaroga borishni istamadi.

Kichik Jorj Bush davrida Amerika –Xitoy aloqalari rivojlanishda davom etdi. Lekin uning davrida ham Tayvanga qurol yetkazib berish davom etdi. Jorj Bush hukumati Xitoy bilan oʻzaro aloqalarni, shu jumladan Tayvan masalasini aniqlab olish uchun 2006 yilda XXR rahbari Xu Szintao bilan uchrashdi. Ikki tomon rahbarlari ham amerika-xitoy aloqalarining yangi bosqichga koʻtarilganini taʼkidlashdi. Tayvan masalasida Jorj Bush yagona Xitoy konsepsiyasini qoʻllab-quvvatlaydi hamda Tayvanning mustaqilligiga qarshi imzolangan uchta kommunikeni tan oladi. Ammo Jorj Bush Tayvan masalasida AQShning siyosatini oʻzgarmasligini taʼkidlab oʻtdi. Xu Szintao AQSh hukumatidan uning Tayvan masalasida oʻz vaʼdasida turishi lozimligi hamda uning har qanday separatistik harakatlarini qoʻllab-quvvatlamasligini taʼkidlab oʻtdi¹.

AQSh R.Nikson davridayoq Tayvan Xitoyning bir qismi ekanligini tan olgan boʻlsada, u yerga boʻlgan taʼsiri haligacha mavjud. XXR bosh vaziri boʻlgan Li Chjaosin xitoy-amerika munosabatlarning rivojlanishi kaliti Tayvan muammosini hal qilish ekanligini taʼkidlab oʻtgan edi².

Pekin hukumati Tayvan muammosini Xitoy yaxlitligini saqlab qolishdagi asosiy muammo deb qaraydi. Tayvan muammosi uchun kurashish bu ikki davlat iqtisodi uchun katta zarar yetkazishi aniq. 2005 yilda Xitoy hukumati hududiy yaxlitlik toʻgʻrisida qonun chiqardi. Shundan soʻng AQSh Yaponiya bilan birgalikda bu hudud ikki davlatning umumiy manfaatlari doirasiga kirishini eʼlon qildi. Bunga javoban Xitoy premyer-ministri Ven Szyabao AQSh va Yaponiyani

¹ Встреча Ху Цзинтао с президентом США Джю Бушем. 2016. // <http://ru.china-embassy.org.html>

² 中国政府对台政策(Xitoy hukumatining Tayvan masalasiga boʻlgan munosabati)// http://news.xinhuanet.com/ziliao/2003-01/24/content_705437.html

Xitoy ichki ishlariga aralashmaslikka chaqirdi. Undan tashqari Xitoy rahbari Xu Szintao Xitoy yaxlitligini saqlab qolish maqsadida o'z armiyasini tayyorladi. Xitoy rahbari Tayvanning qanaqa shakldagi boshqaruv bo'limasin u Xitoyning bir qismi ekanligini ta'kidladi ¹.

Barak Obama Oq uyga kelgandan so'ng amerika-xitoy munosabatlarini jahon siyosatidagi asosiy yo'nalishlardan biri ekanligi g'oyasini ilgari surdi. Hatto "ikki buyuk derjava" (G2) konsepsiyasini ham ishlab chiqildi. 2009–yilda Barak Obama Pekinga rasmiy tashrif buyurdi. Tashrifda Xitoyga jahon moliyaviy inqiroziga qarshi kurashish hamda xalqaro munosabatlardagi muammolarni birgalikda hal qilishni taklif qildi. Ammo Xitoy bu taklifni yoqlamadi va u ko'p qutbli dunyo tarafdori ekanligini ta'kidlab o'tdi. 2010 yildan boshlab ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga sovuqchilik tushdi. Bunga Obama hukumati Tayvanga katta miqdorda qurol sotishga (6,5 mlrd AQSh dollari) qaror chiqarganligi hamda AQSh harbiy qo'shinlari Janubiy Koreya bilan birga Sariq dengizda harbiy-dengiz mashg'ulotlarini olib borganligi sabab bo'ldi. Shundan keyin Xitoy AQSh bilan harbiy aloqalarini "muzlatib" qo'ydi. Undan tashqari Xitoyning Afrika, Yaqin Sharq va Lotin Amerikasidagi harakatlari AQShni cho'chitib qo'ydi².

Shundan so'ng aloqalarni yahshilash maqsadida 2013 yilda Barak Obama va Si Szinpin Kaliforniya shtatida rasman uchrashdi. Albatta bu ushrashuvda Tayvan muammosi ko'tarildi. Si Szinpin Amerika-Xitoy munobabatlarida Tayvan masalasi muhim ekanligini ya'na bir bor ta'kidlab o'tdi. Obama hukumati Tayvan mustaqilligini qo'llab-quvvatlamasligini va AQSh va Xitoy o'rtasida imzolangan uchta kommunikage amal qilishini aytib o'tdi ³.

Tayvan masalasida Yaponiya omili ham muhim rol o'ynaydi. Ayni vaqtda Tayvan muammosining kelib chiqishiga sababchilardan biri. Chunki, oldin ta'kidlaganimizdek Tayvan hududini gollandlar va portugallardan so'ng

¹ O'sha manba.

² США-Китай: карта будущей войны., П. Бурмистров // Русский репортер, № 9 (137) 11-18 март 2010, – С. 52

³ Richard C. Bush III Obama and Xi at Sunnylands: Taiwan // The Brooking institution. June 3, 2013//<http://www.brookings.edu/blogs/up-front/posts/2013/06/03-obama-xi-taiwan-bush.html>

yaponlar egallab olishgan. 1895 yildan 1945 yilgacha Tayvan Yapon koloniyasi ostida boʻlgan. Yaponiya Qohira va Potsdam konferensiyalari natijalaridan soʻng de-yure va de-fakto Tayvanni Xitoyga qaytarib bergan boʻlsa ham, u yerda hali-hanuz manfaatlar mavjud. Chunki, Yaponiya Osiyo–Tinch okeani hududida Xitoy bilan raqobatlashayotgan davlat hisoblanadi. Shuning uchun Xitoyning ichki muammolarining hal boʻlmasligidan Yaponiya manfaatdor.

Yaponiya ham AQSh kabi 1972 yilgacha Gomindan hukumati bilan diplomatik aloqa oʻrnatib, Xitoy bilan dushmanlik kayfiyatida siyosat olib bordi. Ammo 1972 yilda Amerika-Xitoy munosabatlarining oʻzgarishi hamda ular oʻrtasida diplomatik aloqalar oʻrnatilishi natijasida Yaponiya ham oʻz Xitoyga nisbatan tashqi siyosat yoʻnalishini oʻzgartirishga majbur boʻldi. Yaponiya Tayvan bilan diplomatik aloqalarni uzdi va Xitoy bilan rasman diplomatik aloqa oʻrnatdi. Yaponiya va Xitoy oʻrtasidagi imzolangan deklaratsiyada: “Yaponiya hukumati Xitoy Xalq Respublikasini Xitoyning qonuniy hukumati deb tan oladi. Yaponiya hukumati Tayvanni Xitoyning ajralmas qismi ekanligini tan oladi”¹. Ammo Yaponiya va Tayvan oʻrtasida oʻzaro iqtisodiy va madaniy aloqalar davom etaverdi.

Deyarli yarim asr Yaponiya Tayvan ustidan hukmronlik qildi. Bu esa Yaponiya va Tayvan oʻrtasidagi hozirgi kundagi aloqalarga bevosita taʼsir koʻrsatishi tabiiy. Undan tashqari Yaponiya uchun Tayvan doim muhim strategik hudud hisoblangan. Misol uchun Yaqin Sharqning nefti va Janubiy – Sharqiy Osiyoning xom-ashyolari Tayvan orqali Yaponiyaga olib kelinadi. Undan tashqari, Yaponiya Tayvanning importida ikkinchi oʻrinni egallaydi va eng koʻp investitsiyani kiritadi.

Yaponiya rasman Tayvan bilan rasman aloqalarni uzgandan soʻng, vakolatxona oʻrniga “Sharqiy Osiyo bilan munosabatlar” deb atalgan Assotsatsiya tuzadi. 1992 yilda bu Assotsatsiya “iqtisod va madaniyat ishlari boʻyicha Taybey vakolatxonasi” deb nomlanadi. Bu vakolatxona Tokiodan tashqari Osaka, Fukuoka

¹ Белогурова А. Политика японской администрации на Тайване. – М., 2004 № 1. – С. 96-97.

va Iokagama shaharlarida ochiladi. Bu vakolatxona yapon-tayvan o'rtasidagi munosabatlarda Yaponiya manfaatlarini himoya qiladi¹.

Yaponiyaning Tayvan bilan aloqalarida muammoli jihatlar ham mavjud. Ular o'rtasida Senkaku (Dyaoyuydao) oroli talash hudud hisoblanadi. Bu orol Sharqiy –Xitoy dengizida joylashgan.

Senkaku orolining qaysi davlatga tegishlilik masalasi juda ham chalkash hisoblanadi. Birinchi marta bu hudud Xitoyning tarkibida bo'lgan Ryukyu qirolligiga tegishli bo'lganligi qayd etiladi. Lekin XVII asrda Ryukyu Yapon samuraylari tomonidan egallab olinadi. Lekin Xitoyda Sin sulolasi (1644–1911) davrida bu hudud Tayvan provinsiyasi tarkibiga kiritilgan. 1895 yilgi “Simonoseki sulhi”ga ko'ra Yaponiya Tayvan bilan birga Penxuledao va Senkaku orolini olgan. Senkaku Yaponiyaning Okinava prefekturasiga kiritilgan. 1951 yilgi San-Fransisko shartnomasidan so'ng Yaponiya Xitoyni egallab olgan barcha hududlarini shu jumladan Tayvanni ham qaytarib berdi, ammo bu shartnomada Senkaku orolini qaytarish ko'rsatilmagan edi. 1968 yilda Senkaku shelfidan neft chiqqach bu hudud kurash boshlandi². 1971 yilda Tayvan hukumati bu hududni unga tegishli ekanligi e'lon qildi. Uning bu harakati Xitoy hukumati tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi. Bu Tayvan muammosini hal qilish uchun Xitoy hukumati uchun yahshi imkoniyat edi. Orada ancha kurash ketgan bo'lsa ham orol muammosi hali to'liq'icha hal qilinmagan muammo hisoblanadi.

Yaponiyaning Tayvanga bo'lgan manfaatlari XX asr 90 yillarga kelib ancha oshib ketdi. Bu esa Yaponiya va Xitoyning Osiyo-Tinch okeani hududida raqobatining kuchayishi natijasi edi. Yaponiya bu hududda Xitoyning ta'sirini oshirib yubormaslikka harakat qildi. Lekin, Yaponiya Tayvanga bo'lgan siyosatini AQSh pozitsiyasidan kelib chiqqan holda yuritadi. Chunki, AQSh bu muammoni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Yaponiya esa uning harbiy-siyosiy ittifoqdoshi sifatida uni qo'llab-quvvatlaydi. Bundan kelib chiqish mumkinki, Yaponiya Tayvan masalasini hal qilishda mustaqil harakat qila olmaydi. Misol

¹ Рамзес В.Б. Япония: полвека обновление. –М., 1995. – С.192

² История Китая с древнейших времен и до наших эрей. – М.,1990. – С. 62-63

uchun, 1997 yilda Yaponiya va AQSh o'rtasida Tayvanga ham tegishli bo'lgan xavfsizlik doirasida o'zaro hamkorlik tuzilgan. Bu hamkorlik Xitoy hukumatini tashvishga solgan¹.

Yaponiya haligacha Tayvan masalasi va orolning siyosiy holati bo'yicha o'zining so'nggi pozitsiyasini ma'lum qilmagan. Xitoy hukumati fikricha, Yaponiya va Xitoy o'rtasida imzolangan kommunikatsiya esa faqat Xitoyning bu hududga nisbatan munosabatini qo'llab-quvvatlagan hujjat sifatida e'tirof etmoqda. Shuning uchun, Tayvan masalasini hal qilishda Xitoy hukumati Yaponiyadan umid qilmoqda. Ular hech bo'lmaganda Yaponiyaning Tayvanga bo'lgan pozitsiyasini o'zgarishiga harakat qilmoqdalar².

Umuman olganda Tayvan masalasida Yaponiya status-kvo holatini saqlanib qolishidan manfaatdor. Undan tashqari Yaponiya hukumati Tayvan masalasini Xitoy foydasiga to'liq hal bo'lishini yoqlamaydi. Bu esa Xitoy-Yaponiya o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Osiyo-Tinch okeani hududida Xitoyga raqobatchi davlat Rossiya hisoblanadi. Lekin, Rossiya AQSh va Yaponiyadan farqli o'laroq Tayvan masalasidan foydalanib o'z manfaatlarini amalga oshirishga intilmayapti. Sobiq Ittifoqning huquqiy vorisi sifatida Rossiya Tayvan masalasida uning pozitsiyasidan kelib chiqadi.

Sobiq Ittifoq "yagona Xitoy" va "Tayvan Xitoyning ajralmas qismi" ekanligini tan olgan edi. Sobiq Ittifoq Xitoy bilan qurolli to'qnashuv vaziyatida ham, Tayvan bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga harakat qilmadi³.

Sobiq Ittifoq parchalanagandan so'ng Rossiya uning Tayvan masalasi bo'yicha pozitsiyani saqlab qoldi. Lekin, Rossiya iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda Tayvan bilan nohukumat tashkilotlar doirasida munosabatlar o'rnatgan. 1992 yilda Rossiya prezidenti Boris Yelsin Tayvan bilan aloqalarda "Faqat yagona Xitoy mavjud va Tayvan uning ajralmas qismi, shuning uchun

¹ Гельбрас В.Г. Проблемы Международной безопасности в Тайванском пролив. // 05.03.16 <http://www.iass.msu.ru.html>

² Семин. А.В. Что мешает достижению согласия между Токио и Пекином. // Проблемы Дальнего Востока. Проблемы Дал. Востока. – М., 2001. т. № 2. – С. 187.

³ Цыганов Ю. Российско-китайские отношения и Тайвань. 1998. – № 3. – С. 122-128.

Tayvan bilan rasmiy aloqalar oʻrnatilmaydi” degan qaror asosida Tayvan bilan faqat iqtisodiy va madaniy munosabatlar oʻrnatadi deb belgilandi. Lekin B. Yelsinning bu qarori chiqqaniga qaramay, Rossiya Dumasi vakillari bir necha marta Tayvanga rasmiy tashrif bilan borishdi. Rossiyadagi XXR elchixonasi rus hukumati Tayvan muammosida oʻz kelishuvni buzyotganlikda aybladi. B. Yelsin XXR bosh vaziri Szyan Szemin kelganda Tayvan masalasida “toʻrtta yoʻq” siyosatini qoʻllashini aytib oʻtdi. Bular Tayvan qanday shaklda boʻlmasin uni mustaqilligini tan olmaslik; “ikkita Xitoy” konsepsiyasini tan olmaslik; Tayvanni BMTda qatnashishiga yoʻl qoʻymaslik; Tayvanga qurol sotmaslik kabi talablar edi. 2000 yil Vladimir Putin hukumatga kelgandan soʻng ham bu pozitsiyani qoʻllab-quvvatladi¹.

AQSh va Yaponiyadan tashqari boshqa davlatlar ham Tayvan muammosiga turlicha munosabat bildirishadi. Hozirgi kunda Tayvan hukumatini (Xitoy Respublikasi) tan olgan va u bilan rasman diplomatik aloqalarni BMT tarkibiga kiruvchi 22 ta davlat tan olgan. Bular Beliz, Burkina- Faso, Salvador, Gvatemala, Gaiti, Gonduras, Dominika Respublikasi, Kiribati, Marshall orollari, Nauru, Nikaragua, Palau, Panama, Paragvay, Sent-Kits va Nevis, Sent-Lyusiya, Sent-Vinsent va Grenadi, San-Tome va Prinsipi, Solomon orollari, Svazilend, Tuvalu va Muqaddas Prestol (Vatikan) davlatlaridir. Tayvan hukumati bu davlatlar bilan oʻzining “iqtisodiy va madaniy vakolatxonasi” orqali aloqa oʻrnatgan². Oʻz navbatida Xitoy bu davlatlarni tan olmagan va ular bilan rasmiy diplomatik aloqalar oʻrnatmagan.

Oʻzbekiston Xitoy Xalq Respublikasiga qadimiy tarixiy va noyob madaniyatga, ulkan salohiyatga ega boʻlgan buyuk qoʻshni, jahon iqtisodiyoti va global muammolarni hal qilishda haqli ravishda yetakchi oʻrin tutadigan mamlakat sifatida qaraladi.

Mamlakatimizning global va mintaqaviy ahamiyatga molik koʻplab dolzarb, kechiktirib boʻlmaydigan masalalarga qarashlari va ularni yechishga

¹ Oʻsha yerda.

² Непризнанная государства- Китайская Республика (Тайвань). <http://www.geopolitics.ru/2014/01/nepriznannye-gosudarstva-kitajskaya-respublika-tajvan.html>

yondashuvlari o'xshash va yaqindir. O'zbekiston Xitoy rahbariyatining har tomonlama puxta o'ylangan va o'zgarmas siyosiy yo'li, uning “yagona Xitoy”, jumladan, Tayvan va Tibet bo'yicha prinsipal siyosatini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Xitoyga tashrifi chog'ida “Biz XXRning O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan siyosatini yuqori baholaymiz. Xitoyning hududiy yahlitligi borasida qat'iy fikrga egamiz va XXR hukumati bu mamlakatning yagona qonuniy hukumati hamd Tayvan uning ajralmas qismi ekanini e'tirof etamiz”– deya ta'kidlab o'tganlar¹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Tayvan masalasi yuzaga kelishida asosan tashqi omil sabab bo'lgan. Birinchi o'rinda, AQSh bu masalani to'la hal qilinmasligidan manfaatdor davlat hisoblanadi. Tayvan masalasi yuzaga kelishiga Sobiq Ittifoq va AQSh o'rtasida bo'lib o'tgan “sovuq urush” ham sabab bo'lgan. “Sovuq urush” nihoyasiga yetgan bo'lsa ham, AQSh bu masalani saqlanib qolishiga harakat qildi. Chunki, borgan sari Xitoy unga har tomonlama raqobatchi bo'lib bormoqda. AQShning Xitoyga qarshi geosiyosiy kurashida esa Tayvan masalasi “yashirin qarta” vazifasini bajaradi. Shuning uchun, AQSh bu masala Xitoy tomoniga to'la hal bo'lmasligidan iqtisodiy va siyosiy manfaatdor hisoblanadi. Ayni paytda, tarixiy jihatdan Tayvan masalasi yuzaga kelishiga Yaponiya ham aybdor. Hozirgi kunda, Yaponiya bu masalada AQSh kabi siyosat olib bormoqda. Boshqa davlatlar Tayvan masalasida asosan iqtisodiy manfaatlarni ko'zlab siyosat olib bormoqdalar.

2.3. Xitoy ichki va tashqi siyosatida Tayvan muammosini hal etishi masalalari

Xitoy hukumati 1979 yilgacha Tayvan muammosini harbiy yo'l bilan hal qilishga harakat qildi. Ammo bu yo'l bilan hal qilish muammoni yanada kuchayishiga olib keldi. Shuning uchun Xitoy hukumati bu muammoni tinch yo'l

² И.А. Каримов. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13 – Т.: Ўзбекистон, 2005. – Б. 424.

bilan hal qilishga kirishdi. 1971 yil oktabrda BMT rezolyutsiyasiga ko'ra Xitoyning bu tashkilotdagi barcha huquqlarining qayta tiklanishi, Tayvan masalasi bo'yicha u "Xitoyning ajralmas bo'lagi ekanligini" deb e'lon qilinishi hamda Tayvan hukumati vakillarining BMTdan chiqarib yuborilishi Xitoy hukumati uchun bu muammoni hal qilishda yangi imkoniyatlarni taqdim etdi.

Tayvan muammosini hal qilish va Xitoy yagonaligini saqlab qolish Xitoy xalqining eng oliy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Tayvan muammosini tinch hal qilishda "yagona davlat – ikki tizim" konsepsiyasi ilgari surildi. XX asr 50–yillaridayoq Xitoy hukumati bu muammoni tinch yo'l bilan hal qilishga harakat qilgandi. 1955 yilda Xitoy rahbari Chjou Enlay Butunxitoy xalq vakillari kengashida (BXXVK) Tayvan muammosini hal qilishning harbiy va tinch yo'lini tanlash kerakligini ilgari surgandi. Xitoy xalqi bu muammoni tinch yo'l bilan hal qilishni qo'llab-quvvatladi. Ammo tashqi kuchlar ta'siri oqibatida bu maqsad amalga oshirilishi cho'zilib ketdi¹.

1979 yilda Butun Xitoy xalq vakillari kengashining doimiy qo'mitasi "Tayvanlik vatandoshlarga murojaat" ni ishlab chiqdi. Unda aytilishicha, Tayvan hukumati Xitoyning yagonalik pozitsiyasini tan oladi va Tayvan mustaqilligiga mutlaqo qarshi chiqadi. O'z navbatida Xitoy hukumati Tayvanning status–kvo holatini hamda Tayvan hukumati vakillarining muammoni hal qilish borasidagi takliflarini hurmat qiladi².

Shundan so'ng Tayvan muammosini hal qilish borasida Xitoy hukumati Tayvanga bir necha takliflar bilan chiqdi. Ammo asosan tashqi omillar tufayli Tayvan hukumati bu takliflarni rad etib keldi.

1981 yilda o'sha vaqtda BXXVK kengashi kotibi bo'lgan E. Szyanin Tayvan masalasiga to'xtalib o'tib, "ikki tomon birlashtirish bilan bog'liq munosabatlarda aniqlikliliklar kiritish" shiori ostida "Sinxua agentligiga" bergan intervuyusida keyinchalik vatanni birlashtirishdagi tarixiy hujjat bo'lib qoldi. Bular quyidagilar:

¹ Тайванский вопрос объединение Китая / Канцелярия по тайванским делам КНР, 1993. // <http://by.china-embassy.org.html>

² O'sha manba.

– Xitoy millatining boʻlinishiga barham berish uchun XKP va Gomindanning shu buyuk maqsadlar yoʻlida uchinchi bor kelishuvga erishish, oʻzaro vakillar orqali aloqalar oʻrnatish va fikrlar almashinishni yoʻlga qoʻyish;

– Tayvan va Xitoy bilan ikki tomonlama oʻzaro madaniy aloqalarga xayrixohlar uchun qarindoshlar oʻrtasida vizalarni yoʻlga qoʻyish; tomonlarning savdo ishlarida oʻzaro hamkorlikni kuchaytirish; pochta, savdo, havo va suv yoʻllari orqali aloqalar oʻrnatish va fikrlar almashinishini yoʻlga qoʻyish;

– Tayvan Xitoyga qoʻshilgandan keyin unga maxsus maʼmuriy hudud maqomini berish (armiyani saqlab qolish, materik tomondan Tayvan ichki ishlarga aralashmaslik, saylovlarga erkin qatnashish, markaziy hukumatda oʻz vakolatlariga ega boʻlish);

– Tayvanda amal qilinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum tartibotlarini saqlab qolish, shuningdek, 50 yil davomida, Tayvan xalqining yashash tarzi (meros, shaxsiy mulkka munosabat, yer va ishlab chiqarish korxonalari, xorij sarmoyalari hisobidan bunyod etilgan shaxsiy korxonalar) hamda chet ellar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni saqlab qolishga kafolatlar berish;

– Hukumat vakillari, Tayvan siyosiy tuzumida amal qilayotgan turli partiyalar va fikrlarga tazyiq oʻtkazmaslik, ularga markaziy hukumat tomonidan milliy-siyosiy boshqaruv organlarida saylash va saylanish, davlatning boshqaruv ishlariga aralashish, turli joylarda ishlash huquqini berish va uni qonun bilan himoya qilish;

– Tayvan oʻzining moliyaviy tizimlarida muammolarga duch kelguday boʻlsa, markaziy hukumat tomonidan sharoitlarni hisobga olgan holda barcha choralar bilan unga yordam berish;

– Tayvanda yashovchi barcha millatlar va turli jamoat arboblari uchun (xohlagan taqdirda) materikka kelib yashash yoki ketish va shu kabilarda erkin tanlash huquqini berish, hech qanaqa (siyosiy) taʼqibga olmaslik;

– Materik Xitoyning barcha iqtisodiy sohalarida Tayvan tomonidan qoʻyilgan sarmoyalar va korchalonlarning huquqlari, manfaatlari, foyda chiqimlarini qonun orqali himoya qilish;

– Vatanni birlashtirishda “men xitoylikman”, degan tuygʻu har bir shaxsning buyuk vazifasi. Bu yoʻl barcha xitoy millati, jamoat arboblari, tashkilotlarini jipslashtirib, oʻz navbatida, davlat taqdiri bilan bogʻliq¹.

Xitoy rahbari Den Syaopin tomonidan 1982 yilda hududiy muammolarni, jumladan Tayvan muammosini hal qilish boʻyicha “yagona davlat – ikki tizim” konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu tizimning asosiy maqsadi quyidagilarni oʻz ichiga oladi: harbiy qurollarni ishlatmaslikni vaʻda qilmagan holda tinch yoʻl bilan birlashishga intilish; shaxsiy munosabatlarni kengaytirish, iqtisodiy va madaniy almashinuv, ikki qirgʻoq orasida toʻgʻridan-toʻgʻri pochta, transport va savdo munosabatlarini rivojlantirish; muzokaralar orqali birlashuvni tinch yoʻl bilan amalga oshirish, “Yagona Xitoy” gʻoyasidan kelib chiqqan holda, har qanday muammolarni hal qilishga erishish; “yagona davlat – ikki tizim” asosidagi birlashuvni amalga oshirgandan soʻng Xitoydagi sotsialistik tuzumni mustahkamlash, maʼlum bir vaqt davomida Tayvanda kapitalistik tuzum magʻlubiyatini saqlab turish; mamlakatning birlashuvi amalga oshirgandan soʻng Tayvan yuqori darajali avtonomiya olish imkoniyatini taqdim etish; Markaziy hukumat Tayvanda oʻzining harbiy va maʼmuriy vakillarini olib kirmaydi; Tayvan masalasini Xitoyning ichki muammosi hisoblanadi. U tashqi yordamsiz xitoyliklar tomonidan hal qilinishi kerak. Ayni shu yoʻl bilan dastlab Syangan va Aomen muammolari hal qilindi².

Xitoy hukumati tomonidan taqdim etilgan bu konsepsiya Tayvan hukumati tomonidan dastlab qoʻllab-quvvatlanmagan. Gomindanchilar agar Xitoyning tarkibida alohida imtiyozlarga ega boʻladigan hududga aylangan taqdirda ular amerikaning yordamidan ayrilishi va markaziy hukumatga butunlay qaram boʻlib qolishi mumkinligini taʼkidlab oʻtishgan. Shuning uchun Gomindanchilar Xitoy Kompartiyasi tomonidan taklif qilingan “oʻzaro aloqalarning uch yoʻnalishi” (savdo, transport va pochta telegraf) ni rad etib, “uchta yoʻq” yaʼni munosabatlar

¹ Qarang: Шазаманов Ш.И. Ислохотлар даврида Хитой Халқ Республикаси // Монография. – Т.:ТДШИ, 2014. – Б.119-120.

² Qarang: Шазаманов Ш.И. Ислохотлар даврида Хитой Халқ Республикаси //Монография. –Т.:ТДШИ, 2014. – Б.119-120.

o'qnatilmasligi, muzokaralar o'tkazilmasligi va kommunistlar bilan o'zaro kelishuvga bormasligi tamoyilini ilgari surishdi. Boshqa so'z bilan aytganda Tayvan hukumati materik Xitoydan umuman ajralib qolishni xohlashar edi¹.

Ammo 1988 yilda Tayvan hukumati rahbari Szyan Szingo materik Xitoy bilan o'zaro harbiy qarama-qarshilikka borishni to'xtatdi hamda harbiy holat to'g'risidagi qonunni bekor qildi. Uning davomchisi Li Denxuey davrida esa materik Xitoyga nisbatan dushmanlik siyosati olib borish to'xtatildi. 1991 yilda Li Denxuey rasman Gomindan hukumati tomonidan 1947 yilda ilgari surilgan "kommunistik isyonga qarshi umumiy kurash davri"ni bekor qilinganligini e'lon qildi. Gomindan partiyasi "materik Xitoyga qarshi kurash" shiorini olib tashladi. Bu esa Tayvan hukumati tomonidan de-fakto Xitoy hukumatini qonuniy ekanligini tan olishni bildirar edi. Ammo Tayvan hukumati butunlay Xitoyga qo'shilishni xohish bildirishmadi².

Xitoy hukumati Tayvan muammosini hal qilish uchun 1990 yilda "Tayvan bo'lg'ozining ikki tomonida aloqalarni rivojlantirish Assotsiyasi" ni tuzdi. Bu assotsatsiya orqali 1992 yilda ikki tomon muammoni hal qilish bo'yicha konsensusga erishishdi. Unga ko'ra ikki tomon ham yaxlitlik va yagona Xitoyni tan olishdi. Shundan so'ng, ikki hukumat vakillari o'rtasida o'zaro uchrashuvlar amalga oshirila boshlandi. 1993 yil aprelda bu tashkilotning ikki tomon rahbarlari o'rtasida Singapurda muzokara bo'lib o'tdi. Pekin va Taybey o'rtasida iqtisodiy, madaniy sohalarda o'zaro kelishuvlar imzolanishga erishildi³.

1995 yilda Xitoy Kommunistik partiyasi (XKP) rahbari Szyan Szemin tomonidan "sakkiz punkt"dan iborat Tayvan masalasini hal qilish borasida taklifni e'lon qildi. Bu quyidagilardan iborat edi:

- "Yagona Xitoy" tamoyilini himoya qilish;
- Tayvan masalasini hal qilish borasida asta-sekinlik bilan tinch muzokaralarni olib borish;

¹ 徐庆福.台湾 21 世纪 (Syu Sinfu. Tayvan XXI asrda) Taipei., 1981 – 99 页.

² Чудодеев Ю.В. КНР Тайвань: политическая конфронтация или стабильное сосуществование? // Общество и государство в Китае: XXXIX научная конференция/ Ин-т востоковедения РАН.- М.: Вост. Лит., 2009. С.171-180.

³ Мария Анашина. Особые административные районы Китая и Тайваня.// <http://www.anashina.com.html>

- kuch ishlatmaslikni va□da bermasdan tinch qo□shilishga erishish;
- o□zaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish;
- o□zaro aloqalarda Xitoy madaniyati ostida davom ettirish va rivojlantirish;
- muammoni hal qilishda tayvanlik vatandoshlardan ham umid qilish;
- tinch yo□l bilan qo□shilish masalalarida ikki tomon partiya vakillari o□rtasida o□zaro uchrashuvlarni uyushtirish;
- ikki tomon rahbarlarining o□zaro tashriflarini amalga oshirish¹.

Xitoy hukumati Tayvan masalasini tinch yo□l bilan hal qilishida kuch ishlatmaslikni va□da bermagan. Hamda faqatgina uch holatda Xitoy hukumati muammoni kuch bilan hal qiladi: 1) Agar Tayvan chet el bosqinchiligiga uchrasa; 2) Tayvan o□z mustaqilligini e□lon qilsa; 3) bu muammoni hal bo□lishi cho□zilib ketsa hamda Tayvan “yagona Xitoy” tamoyilidan bosh tortib ajralib chiqishga intilsa².

Xitoy hukumati muammoni hal qilishda hech qachon harbiy kuch ishlatmaslikni va□da bermaydi hamda Tayvan bu Xitoyning ichki muammosi va uning ajralmas qismi ekanligini qattiq turib himoya qiladi.

1998 yilda XXR Davlat Kengashi Tayvan masalasi bo□yicha maxsus hujjat qabul qildi. Unda aytilishicha, “Tayvan – Xitoyning ajralmas qismi. Xitoy xalqining Tayvan bo□g□ozining ikki tomonida ham ajralishiga chek qo□yish hamda vatanni birlashtirish oliy maqdad hisoblanadi. Tayvan muammosi – bu Xitoyning ichki ishi. Xitoy hukumati tomonlar birlashuvida tinch yo□l bilan hal qilishga harakat qiladi. Barcha davlat o□z davlatining hududiy yahlitligi va suverenitetini asrab qolish uchun barcha vositalardan foydalanish huquqiga ega”³.

Tayvan hukumati “yagona davlat – ikki tizim” konsepsiyasini qabul qilmadi. Ularning fikricha, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimi boshqacha bo□lgan hudud birlasha olmaydi hamda o□zlarining birlashish bosqichlarini taklif qilishdi. Unga

¹ O’sha manba.

² Литвинова Ю.Г. Общество и государство в Китае: XXXV научная конференция/ Ин-т востоковедение РАН.- М.: Вост. Лит., 2005. С.196-198.

³ O’sha yerda.

ko'ra, dastlabki bosqichda qisqa muddatli istiqbolli aloqalar bosqichi bo'lib, bu bosqich Xitoy hukumati tomonidan Tayvanga nisbatan kuch ishlatish bilan tahdid qilishini to'xtatsa hamda Tayvanga xalqaro maydondagi faoliyatiga qarshilik bildirmasa tugashi mumkin. Ikkinchi bosqichda ikki tomon o'rtasida tenglik asosida rasmiy aloqalarni o'rnatish ko'zda tutilgan. Bu bosqichda yana ikki tomon o'rtasida pochta, transport va savdo aloqalarini ham o'rnatish vazifalari qo'yilgan. Uchinchi bosqichda Xitoyning siyosiy va iqtisodiy birlashuvi masalalarini hal qilish uchun organ tashkil etilishi kerak. Shu maqsadda Li Denxuey o'zining 1997 yilgi nutqida "ikki tomon Tayvan bo'lganining ikki qismidagi Xitoy alohida boshqaruvga ega ekanligini tan olishi kerak. Suverenitet samarali yurisdiksiyaga asoslanishi kerak. Agar, ikki siyosiy tuzum mavjudligini tan olinsa, ikki tomon ham masalani hal qilishning umumiy yondashuvini topishi mumkin. Birlashuv demokratik asosga ko'ra, barcha xitoyliklarning huquq va manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Kommunistik tizim asosida yoki yagona davlat ikki – tizim asosida xalq birlasha olmaydi" deb ta'kidlab o'tdi. Li Denxuey shu pozitsiyani yoqlagan holda yana quyidagi argumentlarni ham keltirib o'tdi. Birinchidan, kommunistik tizim yoki "yagona davlat – ikki tizim" asosida birlashuv butun Xitoyga demokratiyani olib kelmaydi. Ikkinchidan, faqat demokratiya asosida materik Xitoy va Tayvanning kuchini mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun birlashtirish mumkin. Uchinchidan, faqat demokratik tizim va ochiq siyosiy jarayonlari ikki tomon o'rtasida o'zaro ishonchni ta'minlashi mumkin¹.

Tayvanda o'tkazilgan so'rovlar natijasida tayvanliklar status-kvo holati saqlanib qolishini yoqlab chiqqanlar. 2011 yilgi natijalarga ko'ra 86,2% aholi status-kvo holatini saqlanib qolishi uchun, 26,8% aholi esa doimiy status-kvo holatini saqlanib qolishi uchun ovoz berganlar. 81,7 % aholi "yagona davlat – ikki tizim" konsepsiyasini qo'llamagan. Faqatgina 10% aholi materik Xitoy bilan birlashishni yoqlab ovoz berganlar. Taqqoslash uchun 2000 yilda 41% aholi status-

¹ Lee Teng-hui. The Reality is a Divided China // Time. June 22. 1998. Vol. 151. No.24. – P.56.

kvo holati saqlanib qolinishi, 17% aholi Xitoy bilan birlashishni yoqlab ovoz berganlar¹.

Demokratik partiyadan chiqqan Tayvan rahbari Chen Shuybyan (2000–2008 yy.) davrida Xitoy hukumatidan ajralib chiqish hamda Tayvan mustaqilligiga harakat boshlandi. Chen Shuybyan AQSh prezidenti Bill Klinton tomonidan ilgari surilgan “bitta Xitoy – bitta Tayvan” gʻoyasini targʻib qilishga harakat qildi².

Chen Shuybyan davrida hukumat separatistik siyosat yurita boshladi. Separatistik siyosat quyidagilarda namoyon boʻldi:

- 2003 yilda Tayvanda referendum oʻtkazish toʻgʻrisida qonun chiqarildi;
- Yangi Konstitutsiyani qabul qilishga harakat boshlandi;
- 1990 yillarda Gomindan partiyasi tomonidan tuzilgan milliy birlashish dasturi va milliy birlashish Kengashini bekor qilindi;
- “Tayvanlashtirish” siyosati olib borildi.

Ayniqsa “tayvanlashtirish” siyosatiga katta urgʻu berildi. Bu jarayon taʼlim, fan, ommaviy axborot vositalarida targʻib qilina boshladi. Alohida tarix kitoblari yozila boshlandi. Bu harakatlar Xitoyda “madaniy separatizm” deb nomlandi. “Tayvanlashtirish” borgan sari kuchaya boshladi. Xususan 2000 yillarga kelib oʻtkazilgan soʻrovlar natijasiga koʻra 50% ga yaqin aholi oʻzini “xitoylik emas, balki tayvanlik” deb hisoblardi, oʻzini “tayvanlik va xitoylik” deb hisoblaydiganlar esa 43,8 %ni tashkil qildi³.

Chen Shuybyanning muammoni hal qilish boʻyicha fikrlari umuman Pekin hukumatiga qarama-qarshi edi. Chen Shuybyan Tayvan mustaqilligini eʼlon qilmagan boʻlsa ham, materik va orol oʻrtasida siyosiy masofani uzoqlashtirishga harakat qildi. Buni tasdiqlagan holda u “kommunistlarning bu masalani hal qilishda kuchdan foydalanmaslikni bekor qilmaganligini hisobga olib, men oʻz prezidentlik davrimda Tayvanning rasmiy nomini oʻzgartirmayman,

¹ Peter C.Y. Chow. National Identity and Economic Interest // Taiwan’s competing Options and Their Implications for Regional Stability. NY., 2012. – P.141.

² Чудодеев Ю.В. КНР Тайвань: политическая конфронтация или стабильное сосуществование?// Общество и государство в Китае: XXXIX научная конференция / Ин-т востоковедения РАН.- М.: Вост. Лит., 2009. –С.171-180.

³ Qarang: Ларин А.Г. Синьхайская революция и республиканский Китай: век революций, эволюции и модернизации. Сборник статей. – М.: Институт востоковедения РАН. – 312 с. С. 223-240.

lekin ikki tomon munosabatlarni davlatlararo munosabatlar ekanligini Konstitutsiyaga kiritishga hamda mustaqil bo'lish yoki birlashish bilan muammodagi status-kvo holatini ham o'zgartirishga harakat qilmayman” deb ta'kidlab o'tdi¹.

Xitoy hukumatining to'rtinchi avlod vakili Xu Szin Tao (2002–2012 yy.) davrida Tayvan muammosini hal qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Uning dastlabki prezidentlik davrida Tayvanda separatistik siyosat olib borayotgan Chen Shuybyan rahbarlik qilardi. Albatta Tayvanning separatistik siyosatini oldini olish uchun Xitoy hukumati unga nisbatan keskin siyosat olib borishga majbur bo'ldi. Xususan, Xitoy hukumati Tayvanni xalqaro maydondan ajratib qo'yish; ma'lum bir shartlarni hisobga olib kuch bilan muammoni hal qilishga urinish; Tayvanga provinsiya sifatida munosabatda bo'lish siyosatini olib bora boshladi.

Lekin Tayvanda 2008 yilda Gomindan partiyasi rahbari Ma Inszyu Tayvan rahbari bo'lgach bu muammoni tinch yo'l bilan hal qilishga qayta kirishildi. Xu Szintao Tayvan bilan asosan fan, iqtisodiyot, gumanitar sohalarda o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga harakat qildi. Xu Szintao Tayvan masalasi bo'yicha dastlab uchinchi avlod vakili Szyan Szeminning “sakkiz punkt” tamoyilini rivojlantirishga harakat qildi. Lekin, bu masalada sobiq Xitoy rahbarlarining an'anasini davom ettirgan holda, 2008 yilgi nutqida “Tayvanlik vatandoshlarga murojaat” etib o'zining “olti taklif ” deb nomlangan tamoyilini ilgari surdi. Bu tamoyil quyidagilarni o'z ichiga olardi:

- “yagona Xitoy” tamoyilida mustahkamlash;
- iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish;
- xitoy madaniyati asosida ma'naviy hamkorlik rivojlantirish;
- xalqlar o'rtasida aloqalarni kengaytirish;
- davlat suverenitetini himoya qilish;
- dushmanlik kayfiyatini to'xtatish va tinch kelishuvga erishish².

¹ Qarang: O'sha yerda.

² Верченко.А.Л. Общество и государство в Китае. Т. XLIV, ч. 1/ Редколл.: Кобзев А.И. и др. –М.: ИВ РАН., 2014. -594 стр. – С. 281-291

Tayvan hukumati rahbarlarining olib boradigan siyosati ham ushbu muammoga katta taʼsir qiladi. Misol uchun, Li Den Xuey davrida ikki tomon oʻrtasida nisbatan aloqalar yahshilangan boʻlsa, Chen Shuybyan davrida bu muammo yanada kuchayishiga olib keldi.

2008 yilda Tayvan rahbari etib tayinlangan Ma Inszyu esa Xitoy hukumati bilan qarama-qarshilikka borishni xohlamadi va 1992 yilgi shartnoma boʻyicha Xitoy bilan yangi kelishuvlarni olib borishga rozi boʻldi. Ma Inszyu davrida 2011 yilga kelib oʻzaro aloqalar yangi bosqichga koʻtarildi. Ikki tomon pochta, moliya, meditsina va sogʻliqni saqlash, intellektual mulkni himoya qilish, jinoyatga qarshi birgalikda kurashish va yuridik yordam sohalari shartnomalarga erishishga muvaffaq boʻlindi. Undan tashqari materik Xitoyda yashovchi xitoyliklarga Tayvanga sayohat qilish imkoni berildi. 2010 yil 29 iyunda Xitoy va Tayvan oroli oʻrtasida savdo boʻyicha ikki yoqlama bitimning imzolanishi jahon iqtisodiyotining globallasuvi tufayli vujudga kelgan mintaqaviy integratsiya muammolarini hal qilishda qoʻyilgan ikkala tomonning strategik qadami boʻldi va bu ikki davlat tashqi iqtisodiy munosabatlarining yanada rivojlanishiga zamin yaratdi. Xususan 2010 yilda savdo ayirboshlash 131 mlrddan dollar oshib ketdi, bu jihatdan Xitoy Tayvanning eng yaqin iqtisodiy hamkorlari AQSh va Yaponiyani ortda qoldirdi¹.

2012 yilda Xitoy Xalq Respublikasi rahbari etib Si Szipin tayinlandi. Uning davrida ham Tayvan masalasi boʻyicha “yagona davlat – ikki tizim” konsepsiyasi ilgari surildi. Ikki tomon oʻrtasida iqtisodiy va boshqa sohalarda aloqalar rivojlanmoqda.

2008 yil 7 noyabrda tarixda birinchi marta Xitoy hukumati rahbari Si Szipin va Tayvan hukumati rahbari Ma Inszyu bilan Singapurda uchrashdi. Bu ikki tomon oʻrtasidago aloqalar yanada mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. 66 yildan soʻng boʻlib oʻtgan oʻzaro uchrashuvda ikki rahbar yopiq tarzda oʻzaro

¹ Чудодеев А. Большой Китай: КНР и Тайвань. 2008. – № 36. – С. 36-38.

fikr almashishdi. Si Szinpin “Tayvan bo‘g‘ozining ikki tarafidagi xitoy xalqining o‘z muammolarini o‘zi hal qila oladi” – deb ta‘kidlab o‘tdi¹.

2016–yilda Tayvanda prezidentlik saylovlari bo‘lib o‘tdi. Saylovda Demokratik Taraqqiyot partiyasi vakili Tsai Ing Ven president etib tayinlandi. U Tayvan tarixida saylanagan ilk ayol prezident bo‘lib qoldi. Demokratik Taraqqiyot partiyasi Gomindan partiyasiga nisbatan materik Xitoy bilan keskin siyosat olib boradi.

Tsai Ing Ven lavozimga kirish nutqida 1992 yilgi materik Xitoy bilan imzolangan konsensusni tan olmasligini ta‘kidlab o‘tdi. U status-kvo holati saqlanib qolishini, “yagona Xitoy” prinsipini qo‘llamasligini ma‘lum qildi. Albatta bu yana materik Xitoy bilan aloqalarga va Xitoyning AQSh bilan munosabatlariga salbiy ta‘sir o‘tkazadi².

Si Szinpin o‘zining “Davlat boshqaruvi” asarida Tayvan masalasiga to‘xtalib o‘tib “Tayvan bo‘g‘ozining ikki tomon o‘rtasida pochta, telegraf va savdo sohalarida o‘zaro aloqalar mustahkam o‘rnatildi. Ayniqsa ikki tomon o‘rtasida o‘rnatilgan iqtisodiy shartnoma iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib keldi. Tayvan bo‘g‘ozining ikki tomoni ham tinch rivojlanishni ko‘zda tutgan holda “ikki sohil – yagona oila” konsepsiyasini targ‘ib qilish lozim” deb ta‘kidlab o‘tdi³.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xitoy hukumati Tayvan masalasining hal qilish uchun deyarli bir asrdan beri harakat qilmoqda. Shu vaqt mobaynida bu masala Xitoyning foydasiga hal bo‘layotganini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, dastlab BMT tomonidan Tayvanning Xitoyning ajralmas bo‘lagi deb tan olinishi; AQSh va Yaponiyaning Tayvan bilan rasman aloqalarni uzganligi va yagona Xitoyning tan olishi; 1992 yilda Xitoy va Tayvan o‘rtasida konsensusga erishishi ya‘ni ikki tomon ham Xitoyning yagonaligini tan olishi; 2010 yilda esa

¹ Си Цзинпинь: Китай и Тайвань могут самостоятельно решить свои проблемы.

<http://ria.ru/world/20151107/1315538827.html>

² No ‘consensus’ in Tsai speech : report // Taipei Times online. Stacy Hsu / staff reporter. Thu, May 12, 2016 // <http://www.taipeitimes.com/News/front/archives/2016/05/12/2003646058/2.html>

³ Си Цзинпинь. О государственном управлении. Пекин.: Издательство литературы на иностранных языках., 2014. – С.314-315.

ikki tomon o'rtasida iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishi kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Lekin, Tayvan hukumati hali materik Xitoy bilan birlashishni xohlamayapti. Agar o'zaro aloqalar shu tarzda davom etadiga bo'lsa, ikki tomon ham qo'shilish borasida bir to'xtamga kelishi aniq. Eng asosiysi Xitoy yagonaligini ko'p davlatlar tan olgan. Davlatning yagonaligi eng muhim jihat hisoblanadi. Albatta Xitoydek qudratli davlat bu jihatga befarq qarab turmaydi. Kelajakda Tayvan mustaqil bo'lib ketishi juda qiyin masala. Chunki Xitoyning bu masalani hal qilishi uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Bir tomondan hali uzoq vaqt davomida status-kvo holati ham saqlanib qolishi mumkin.

XULOSA

Mavzuni o'rganish natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchiidan, Davlat tuzilishi shakli deganda davlat hududini tashkil qilish hamda ushbu hududdagi aholini qaysi usulda boshqarishni nazarda tutiladi. davlatlarning tuzilish shakli uning tarixiy, siyosiy, milliy, diniy, madaniy qadriyatlarini hisobga olgan holda shakllanadi. Davlat qaysi usuldagi tuzilish shakli bo'lmasin, u birinchi navbatda davlatning hududiy yahlitligi va bo'linmasligi uchun xizmat qilishi lozim.

Ikkinchiidan, Xitoyda o'ziga xos tuzilish shakli mavjud. Xitoy unitar davlat bo'lsa ham federativ davlatlarga xos bo'lgan avtonom hududlar, maxsus boshqaruv hududlar vujudga kelgan. Xitoy federativ davlat bo'lgan taqdirda, uning avtonom hududlari sesessiya huquqini talab qilgan holda uning tarkibidan chiqib ketishga harakat qilardi. Ayni paytda Tayvan uchun ham Xitoydan ajralib chiqish imkoniyatini yaratar edi. Albatta bu Xitoyning hududiy yahlitligi va

bo'linmasligiga juda salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Xitoy ham huddi Sobiq Ittifoq, Yugoslaviya va Chexoslavakiya kabi bo'linib ketishi mumkin edi. Shuning uchun ham Xitoy unitar shaklda qolgan.

Uchinchidan, Tayvan tarixiy, huquqiy jihatdan Xitoyning tarkibidagi hudud hisoblangan. Tayvan muammosini kelib chiqishiga ikki qarama-qarshi tizimning kurashi (kapitalizm va kommunizm), ularning har biri Xitoyni boshqarishga da'vo qilishga intilishi; yengilgan kapitalizm tizimining Tayvan oroliga ko'chib o'tishi; AQShning Xitoyning ichki ishlariga aralashuvi sabab bo'lgan. Ammo, Tayvan muammosini vujudga kelishida qisman Xitoyning ham aybi bor. Misol uchun, "Simonoseki sulhi"ga ko'ra Yaponiyaga Tayvan orolini berib yuborishga rozi bo'lishi hududning taqdiriga beparvo bo'lganligini bildiradi. Yaponlar Tayvanni Xitoyga qaytarib bergan bo'lsalar ham, hududning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida juda katta ta'sir o'tkazishgan. Ayniqsa, Tayvanning iqtisodiy rivojlanishida Yaponiyaning ta'sirini bilish mumkin. Keyinchalik Xitoy Xalq Respublikasi tuzilganda ham hukumat gomindanchilarga qarshi oxirgacha kurashmadi. Bu esa hududda gomindanchilar hukumati o'rnatilishiga sabab bo'ldi. Undan tashqari Tayvan muammosi ikkinchi jahon urushidan so'ng o'z ta'sir doiralarini kengaytirish uchun harakat qilgan AQSh va Sobiq Ittifoqning o'zaro kurashi natijasida vujudga keldi.

To'rtinchidan, Tayvan masalasi yuzaga kelishida asosan tashqi omil sabab bo'lgan. Birinchi o'rinda, AQSh bu masalani to'la hal qilinmasligidan manfaatdor davlat hisoblanadi. Tayvan masalasi yuzaga kelishiga Sobiq Ittifoq va AQSh o'rtasida bo'lib o'tgan "sovuq urush" ham sabab bo'lgan. "Sovuq urush" nihoyasiga yetgan bo'lsa ham, AQSh bu masalani saqlanib qolishiga harakat qildi. Chunki, borgan sari Xitoy unga har tomonlama raqobatchi bo'lib bormoqda. AQShning Xitoyga qarshi geosiyosiy kurashida esa Tayvan masalasi "yashirin qarta" vazifasini bajaradi. Shuning uchun, AQSh bu masala Xitoy tomoniga to'la hal bo'lmasligidan iqtisodiy va siyosiy manfaatdor hisoblanadi. Ayni paytda, tarixiy jihatdan Tayvan masalasi yuzaga kelishiga Yaponiya ham aybdor. Hozirgi kunda, Yaponiya bu masalada AQSh kabi siyosat olib bormoqda. Boshqa davlatlar

esa asosan Tayvan masalasi bo'yicha iqtisodiy manfaatlarni ko'zlab siyosat olib bormoqdalar.

O'zbekistonning Xitoy bilan borgan sari hamkorligi kengayib bormoqda. Xitoydagi hal qilinmagan muammolar nafaqat Xitoyga balki mintaqaga, jumladan O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Chunki o'zbek xalqida "qo'shning tinch-sen tinch" maqoli bejizga aytilmagan. Shuning uchun O'zbekiston Xitoyning hududiy yahlitligi va Tayvan uning bir qismi ekanligini, undan tashqari O'zbekiston xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga amal qilgan holda Tayvan muammosini hal qilinishini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Beshinchidan, Xitoy hukumati Tayvan masalasining hal qilish uchun deyarli bir asrdan beri harakat qilmoqda. Shu vaqt mobaynida bu masala Xitoyning foydasiga hal bo'layotganini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, dastlab BMT tomonidan Tayvanning Xitoyning ajralmas bo'lagi deb tan olinishi; AQSh va Yaponiyaning Tayvan bilan rasman aloqalarni uzganligi va yagona Xitoyning tan olishi; 1992-yilda Xitoy va Tayvan o'rtasida konsensusga erishishi ya'ni ikki tomon ham Xitoyning yagonaligini tan olishi; 2010-yilda esa ikki tomon o'rtasida iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishi kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Lekin, Tayvan hukumati hali materik Xitoy bilan birlashishni xohlamayapti. Agar o'zaro aloqalar shu tarzda davom etadigan bo'lsa, ikki tomon ham qo'shilish borasida bir to'xtamga kelishi aniq. Eng asosiysi Xitoy yagonaligini ko'p davlatlar tan olgan. Tayvan muammosida yuzaga kelishida sababchi bo'lgan AQSh ham Xitoyning yagonaligini va Tayvan uning bir qismi ekanligini tan olgan. Bu masalani hal qilish bo'yicha AQSh Xitoy bilan uchta kommunique imzolagan. Bu Xitoyning Tayvan uning ajralmas qismi ekanligini va bu muammo uning ichki muammo ekanligini isbotlovchi hujjat bo'lib xizmat qiladi. Davlatning yagonaligi va bo'linmasligi eng muhim jihat hisoblanadi. Albatta Xitoydek qudratli davlat bu jihatga befarq qarab turmaydi. Undan tashqari Xitoyning xalqaro munosabatlaridagi o'rning oshib borishi va boshqa davlatlarning u bilan aloqa qilishga intilishi bu muammoni hal qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Kelajakda Tayvan mustaqil bo'lib ketishi juda qiyin masala. Agar Tayvan mustaqillik kiritadigan bo'lsa, Xitoy

bu muammoni hal qilish uchun o'z qo'shinini olib kiradi, ikkinchi tomondan Tayvanni qo'llab-quvvatlovchi AQSh uni himoya qilishga harakat qiladi. Bu esa Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek mintaqaning hal qilinmagan va gazak otib ketgan muammolari butun dunyoda zanjir reaksiyasini vujudga keltirib boshqa davlatlardagi hududiy muammolar avj olib ketishiga hamda davlatlarning yana ikki qutbga ajralib yangi urushlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham Tayvan muammosi hal qilish juda muhim hisoblanadi. Undan tashqari bu muammoning hal qilinishi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan bo'lgan davlatlarning hududiy yaxlitligi va bo'linmasligi prinsiplarini yanada mustahkamlanishiga, hamda davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va hurmatni oshishiga imkoniyat yaratadi. Lekin, hozirgi kunga qadar bu muammo hal qilinmagan muammo bo'lib qolmoqda. Bu muammoning hal qilinishi esa hozirgi kunda Xitoy va Tayvanda yashovchi xalqlarning xohish-irodasiga ko'proq bog'liq bo'lib qolmoqda.

Mavzuning xulosasidan kelib chiqqan holda biz quyidagi tavsiyalarni beramiz:

Birinchi, xalqaro munosabatlarda davlatlarning suvereniteti, yaxlitligi va bo'linmasligi prinsipilariga amal qilish kerak.

Ikkinchi, Tayvan muammosiga boshqa davlatlarning aralashishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Chunki, bu Xitoyning ichki muammosi hisoblanadi.

Uchinchi, Xitoy Xalq Respublikasi ikki tomon qo'shilish masalasida Tayvanning ham takliflarini inobatga olishi kerak deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy – huquqiy hujjatlar:

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2015. – 40 b.
- 1.2. Резолюция Совета Безопасности ООН 2758 // <https://documents-ddsny.un.org/doc/RESOLUTION/GEN/NR0/327/74/IMG/NR032774.pdf?OpenElement>
- 1.3. Конституция КНР 2004 г. // http://abc.vvsu.ru/books/u_state_hist/page0132.asp.html

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov asarlari

- 2.4. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.1. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
- 2.5. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. – Т. 5. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 384 б.

- 2.6. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.
- 2.7. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. – Т. 6. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
- 2.8. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Т.10. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 432 б.
- 2.9. И.А. Каримов. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.13 – Т.: Ўзбекистон, 2005. – 448 б.
- 2.11. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. – Т. 14. – Т.: Ўзбекистон, 2006. – 280 б.
- 2.10. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 173 б.
- 2.11. Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т.: Ўзбекистон, 2015. – 304 б.
- 2.12. Ўзбекистон Республикаси билан Хитой Халқ Республикаси ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг асосий принциплари, ўзаро манфаатли ҳамкорликни янада ривожлантириш ва чуқурлаштириш тўғрисида баённома. // Халқ сўзи. 1994 йил 28 октябрь.

3. Ilmiy adabiyotlar

О‘zbekiston Respublikasida chop etilgan:

- 3.15. Bekmuratov I.N. Xitoyning “o’rta yo’l” – tinch yuksalish falsafasi. // Maqola. “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Т.: 2014. – 230-236 б.
- 3.16. Odilqoriev X.T, Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik. – Т.: “O‘qituvchi” NMIU, 2009. – 344 б.
- 3.17. U.A. Xasanov. Xalqaro munosabatlar nazariyasiga kirish. O‘quv qo‘llanma. – Т.: JIDU, 2007. – 75 б.
- 3.18. Ким. В.С. Политическая идеология Китая XX века: генезис, эволюция и современность. – Т.: ТашГИВ., 1995. – 322 с.
- 3.19. Очилов Б.Э., Одилқориев Х.Т. Ҳозирги замон халқаро оммавий ҳуқуқи: Дарслик. – Т.: Тошкент давлат юридик институти, 2007. – 700 б.
- 3.20. Шазаманов Ш.И. Ислоҳотлар даврида Хитой Халқ Республикаси // Монография. Т.: Тошкент давлат шаршунослик институти, 2014. – 167 б.

Rossiyada chop etilgan:

- 3.21. Барышников В.Н. Тайванский вопрос в китайско-американских отношениях. – М., 1969. – 225 с.
- 3.22. Белогурова А. Политика японской администрации на Тайване. – М., 2004. № 1. – 233 с.
- 3.23. Верченко А.Л. Общество и государство в Китае. Т. XLIV, ч. 1 / Редколл.: Кобзев А.И. и др. – М.: ИВ РАН, 2014. – 594 с.
- 3.24. Гудошников Л.М. Конституция Китайской Народной Республики в процессе исторических перемен и реформ // Проблемы Дальнего востока. 2002. № 3. – С. 121-135.
- 3.25. Гудошников Л.М., Кокарев К.А. Политическая система Тайваня. – М., 1997. – 420 с.
- 3.26. Егоров К.А. Китайская Народная Республика: Политическая система и политическая динамика – М., 1993. – 208 с.
- 3.27. История Китая с древнейших времен и до наших эрэй. – М., 1990. – 537 с.
- 3.28. Комаров С. А., Малько А. В. Теория государства и права. М.: НОРМА, 2001. – 448с.
- 3.29. Конституции зарубежных государств: учебное пособие. – М.: Изд-во «Юристъ», 1996. 195 с.
- 3.30. Кулик Б.Т. США и Тайвань против КНР. – М., 1995. – № 5. – 190с.
- 3.31. Леженина Т. Тайвань: ответ на вызовы XXI в. // Общество и экономика. – 2003. – № 7/8. – С. 234-238.
- 3.32. Ларин А.Г. Синьхайская революция и республиканский Китай: век революций, эволюции и модернизации. Сборник статей. – М.: Институт востоковедения РАН. – 312 с.
- 3.33. Новейшая история Китая 1917-1970. / Под ред. Г.В. Астафев, В.Н. Никифоров. – М., 1990. – 347 с.
- 3.34. Новое изучение Китая: Сб.ст. / Под ред. М.А. Титаренко. – М., 1990. – 189 с.
- 3.35. Общая теория права и государства: учебник / Под ред. В. В. Лазарева. – М., 1994. – 472 с.
- 3.36. Страшун Б.А. Конституции социалистических государств / Б.А. Страшун. - М.: Спарк, 2001. – 322 с.
- 3.37. США-Китай: карта будущей войны., П. Бурмистров // Русский репортер, № 9 (137) 11-18 март 2010, – С. 52-54.
- 3.38. Семин. А.В. Что мешает достижению согласия между Токио и Пекином. // Проблемы Дальнего Востока. – М. 2001. № 9 С. 43-48.

- 3.39. Тайвань: Проблемы развития: Материалы научно практической конференции. – М., 1990. – 221 с.
- 3.40. Федерация в зарубежных странах. / отв. ред.: Ковачев Д.А. – М., 1993. – 112 с.
- 3.41. Хропанюк В.Н. Теория государства и права: Учебное пособие. – М.: Юриспруденция, 1996. – 384 с.
- 3.42. Цыганов Ю. Российско-китайские отношения и Тайвань. - 1998. - № 3. –344 с.
- 3.43. Китай-2013. Сборник. – Пекин.: Издательство литературы на иностранных языках, 2013. – 245 с.
- 3.44. Чудодеев Ю.В. КНР Тайвань: политическая конфронтация или стабильное сосуществование? // Общество и государство в Китае: XXXIX научная конференция / Ин-т востоковедения РАН. – М.: Восточная Литература., 2009. С.171-180.
- 3.45. Чжоу Ихуан. Дипломатия Китая. Пекин.: Межконтинентальное издательство Китая . 2005 г. – 195 с.

Boshqa xorijiy davlatlarda chop etilgan:

- 3.46. Си Цзиньпин. О государственном управлении. Пекин: Издательство литературы на иностранных языках, 2014. – 624 с.
- 3.47. Emerson M.S. Niou. A Strategic Analysis of the Taiwan Independence Issue // Duke University program in political economy, 1998. –29 p.
- 3.48. Lee J. Hunkovic. The Chinese-Taiwanese Conflict. // Possible Futures of a Confrontation between China, Taiwan and the United States of America American Military University, 2008. – 67 p.
- 3.49. Lee Teng-hui. The Reality is a Divided China // Time. June 22. 1998. Vol. 151. No. 24. P –56.
- 3.50. Kerry Dumbaugh. Taiwan’s Political Status: Historical Background and Ongoing Implications // Congressional Research Service. June 4, 2009. – 30p.
- 3.51. Peter C.Y. Chow. National Identity and Economic Interest. Taiwan’s competing Options and Their Implications for Regional Stability. NY., 2012. – 141 p.
- 3.52. Vincent Wei-Cheng Wang. The Chinese Military and the “Taiwan Issue”: How China Assesses Its Security Environment. // University of Richmond. Southeast Review of Asian Studies ,Volume 29 . – 2007. –119 p.
- 3.53. Yuan Peng. The Taiwan Issue in the Context of New Sino – U.S. Strategic cooperation // Washington D.C.: The Brookings institution. Center for Northeast Asian Policy Studies. 2004. P – 29-31.

- 3.54. 林冈. 台湾问题：美国对华政策中的两难议题 (Li Tang. Tayvan masalasi: Xitoy-AQSh munosabatlaridagi dilemma) // 上海交通大学 国际与公共事务学院. Shanghai., 2010. 页 65- 78.
- 3.55. 徐庆福. 台湾 21 世纪 (Syu Sinfu. Tayvan XXI asrda) Taipei., 1981. – 156 p.
- 3.56. 杨雪彤. 美国的霸权与中国的安全. (Yang Suetun. AQShning gegemonligi, Xitoyning xavfsizligi) Beijing., 2000. – 250 页.
- 3.57. 谭郑睿. 中美其子中的台湾问题 (Tan Chjenyuy. Tayvan AQSh va Xitoy shaxmat doskasida). –Beijing., 2001 – 340 页.;

4. Internet saytlari

- 4.58. O'zbekiston-Xitoy strategik hamkorlik // 06.06.2012 <http://press-service.uz/uz/news/1240/>
- 4.59. Встреча Ху Цзинтао с президентом США Дж. Бушем. 2016.// <http://ru.china-embassy.org.html>
- 4.60. Галенович. Ю.М. Тайвань отрезанный ломоть Китая? // <http://www.iass.msu.ru.html>
- 4.61. Город Чунцин. Женьмин-Жибao онлайн// <http://russian.people.com.cn/31516/4847937.html>
- 4.62. Гельбрас В.Г. Проблемы Международной безопасности в Тайванском пролив. // 05.03.16 <http://www.iass.msu.ru.html>
- 4.63. История Гонгконга // 11 июня 2014 года. <http://www.hong-kong.ru/stories/istorija-gonkong.html>
- 4.64. Попов Р.В. Конфедерация государств: История и современность.//Автореферат по ВАК 12.00.01// <http://www.dissercat.com/content/konfederatsiya-gosudarstv-istoriya-i-sovremennost.html>
- 4.65. Мария Анашина. Особые административные районы Китая и Тайваня.//манба: <http://www.anashina.com.html>
- 4.66. О Макао. Информационный портал о Гонгокоге и Макао. <http://www.hong-kong.ru/o-makao.html>
- 4.67. Принцип одного Китая и Тайванский вопрос: Материалы прессканцелярии Госсовета КНР // <http://www.chinataiwan.ru.html>
- 4.68. Си Цзинпинь: Китай и Тайвань могут самостоятельно решить свои проблемы.// <http://ria.ru/world/20151107/1315538827.html>
- 4.69. Тайванский вопрос объединение Китая / Канцелярия по тайванским делам КНР, 1993.// <http://by.china-embassy.org.html>

- 4.70. No 'consensus' in Tsai speech : report// Taipei Times online. Stacy Hsu / staff reporter. Thu, May 12, 2016// <http://www.taipeitimes.com/News/front/archives/2016/05/12/2003646058/2.html>
- 4.71. Richard C. Bush III Obama and Xi at Sunnylands: Taiwan//The Brooking institution. June 3, 2013 // <http://www.brookings.edu/blogs/up-front/posts/2013/06/03-obama-xi-taiwan-bush.html>
- 4.72. 中国政府对台政策.(Xitoy hukumatining Tayvan masalasiga bo'lgan munosabati) // http://news.xinhuanet.com/ziliao/2003-01/24/content_705437.html
- 4.73. 小辛欢 . 政府改民主治理 . // <http://www.roc-taiwan.ru.com/policy/2002050517.html>
- 4.74. Цветков.И.А. Формирование тайваньской проблемы и политика США. Диссертация. // <http://ushistory.ru.html>